

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

**19**  
ISSUE-4



*Journal of new  
century innovations*

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

**AREAS**

Engineering and  
Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



Google  
Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



# **JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS**

**VOLUME - 19 | ISSUE - 4**

**DECEMBER - 2022**



**ICI JOURNALS  
MASTER LIST**

**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING YOZMA NUTQDAGI  
XATOLARI VA KAMCHILIKLARI TASNIFI VA ULARNING  
O`RGANILISHI**

*No'monova Madinabonu Ilhomjon qizi  
FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** ta'lim, ayniqsa boshlang'ich ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning imlo savodxonligi, ularning umumiy intellektual rivojlanishin uchun, muloqot jarayonining faol ishtirokchisia bo'lishi uchun muhim omillardani biri hisoblanadi. O'quvchilarning imlo savoxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqlaridagi xatoliklarini bartaraf etishda xatolar ustida ishslash darslarini metodik ejihatdan maqsadga yo'naltirilgan ravishda tashkil etish muhim o'rinni tutadi.

**Kalit so'zlar:** yozma ishlar, mashqlar, xatolarini tuzataish, izohlatish, grammatik, orfografik tahlillar, yozib qo'yish usuli, «Lug'at doskasi», dialektal xatolar.

I. Kirish:

Dars jarayoni murakkab ijodiy palladir. Uning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning faolligi va ularning qiziquvchanligiga bog'liq. Ushbu qiziqishlar asnosida bolalarda yozma nutqdagi xato va kamchiliklarini to'g'rilashga doir har xil qiziqtiruvchi mashg'ulotlar ham olib borilishi lozim.

II. Asosiy qism:

Yangi pedagogik texnologiya o'qituvchidan ijodkorlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlikni talab etadi. Ilgari darslar ma'lum bir qolip asosida olib borilgan bo'lsa, hozirgi kunda noan'anaviy holatda, har kungidan o'zgacha tartibda tashkil etiladi.

Orfografiya o'qitishda o'quvchilaming savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolami tugalish usullari alohida o'rinni tutadi. Maktabda o'tkaziladigan barcha turdag'i yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir, Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin. O'quvchilaming orfografik malakasi haqida tasavvur ta'sir qilish uchun ko'proq nazorat diklant, hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining harqanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ilmiy oziq beradi[1].

Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning xarakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarini tuzataish yoki partada o'tirgan ikki o'quvchi daftalarini almashtirib, bir-birlarining yozganlarini kuchlari yetganicha tekshiradilar. Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi inobatga olinadi.

Uyda bajariladigan mashqlar ham tekshirilishi mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi:

- A) parta ustiga qo'yilgan daftami tekshirib chiqish;
- B) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganini o'qitib izohlatish;
- C) har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik-orfografik tahlillar mana shu usul bilan tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi, shuning uchun daftarlar har ikki uch soat dars o'tilganidan so'ng yig'ishtirib olinib, darsdan so'ng yoki uyga olib ketih tekshirib chiqilishi kerak[3]. Xatolami qanday tuzatish kerak?

Xato tuzatish ham ijobiy xarakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyohli bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda yoki faol lug'atda o'tib ketgan ruscha, forscha va arabcha so'zlarda (maktab-maktab). (g'ishtg'ish),, (ruchka-ro'chka), (stol-istol) xato qilsa va bu xatolami tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin. Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzvot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi. Xato grammatik formada bo'lsa, harf emas, forma o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi aniqlashi kerak. Ba'zi uslubchilar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikr to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi maktab degan so'zda b o'miga p yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, o'quvchida shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar (kitob, bob, to'lib, o'qib, ayab, boylab) topishni vazifa qilib beradi. Lekin xato tuzatishning bu usulini yagona usul deb ham bo'lmaydi. Ayrim xollarda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashini talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to'g'irlamasdan chizib qo'yish, xato yozilgan harfnинг

yoki shu harfni o'z ichiga bo'g'in yoki so'zning tagiga chizib qo'yish, qaysi qatorda xato qilingan bo'lsa, o'sha qator hoshiyasiga belgi qo'yish ham xato tuzatish usullaridir. Lekin xato tuzatishda bu usullar aralash qo'llanmasligi kerak. Bunda o'quvchilaming yosh xususiyati, qoidaning sodda yoki murakkabligi, o'quvchilarga o'zlashish, ulami mustaqil ishslashga yo'llash darajasi hisobga olinishi kerak. Orfografiya o'qitish tizimi butunicha imlo xatolarining oldini olishga qaratilgan. Yozilishi qoida bilan izohlanadigan orfogrammalarda bo'ladigan xatolaming oldini olish uchun bunday so'zlarni doskaga yozib, ularning yozilishiga o'quvchilarining diqqatini jalb qilinadi: Masalan, b tovushining yozilishida xato bo'lmasligi uchun, o'qituvchi b va p tovushli bir qancha so'zlamini doskaga yozib, ulaming imlosini esda saqlab qolish kerakligini ogohlantiradi. Xatolarning oldini olishda turli ko'rgazma va jadvallardan ham foydalandik. Ko'rgazmalar mavzuga doir yoki umumiy bo'lishi mumkin. Mavzuga doir ko'rgazmani ma'lum qoida, masalan b undoshi, jarangli-jarangsiz tovushlar, x va h undoshlari bo'vicha tayyorlab, sinf devorida osib qo'yiladi. Ko'rgazma umumiy bo'lganda, unga o'quvchilar ko'p xato qiladigan va har xil qoidaga xos so'zlar kiritiladi. Ko'rgazma o'z vazifasini o'tab bo'lguncha, ya'ni undosh tovushlaming yozilishida o'quvchilar xato qilmaydigan bo'lgunga qadar sinf devorida osig'liq turishi mumkin, Xatolarni oldini olislida «Lug'at doskasi» dan ham keng foydalanish mumkin. Orfografik xatolarni oldini olish talaffuzni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak: imlosi qiyin so'zlarni bo'g'inma-bo'g'in, harflna-harf aytib berishga aslo yo'l qo'ymaslik lozim. Maktabda ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi deyarli orfografiya o'qitishni yaxshilashga bo'ysundiriladi. Xatolar ustida o'quvchining o'zi ham ishlaydi. Bunda o'quvchilarini o'zlariga xatolarining sabablarini yozma va og'zaki izohlatish, qaysi qoidada xato qilingan bo'lsa, unga mos so'zlar toptirish qoidani takrorlatish usulidan keng foydalanish mumkin. Ba'zi o'quvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozdirish usulidan ham foydalanadilar. Lekin bu hamma vaqt ham samarali natijani beravermaydi, Bu usuldan yozilishi ma'lum qoida bilan izohlanmaydigan so'zlamni to'g'ri yozishga o'rgatishda foydalanish mumkin. O'quvchilaridan vaqtiga-vaqtiga bilan qaysi qoidalarda xatoga yo'l qo'yanini, buni tuzatish sohasida nimalar qilinganligini so'rab turish mumkin. Ba'zan bir o'quvchining daftarini ikkinchi o'quvchiga tckshirtirish usulidan ham foydalaniladi. Bu o'quvchilarining qiziqishini ortiradi. Shunday hollar ham bo'ladiki, o'qtuvchi o'zi ma'lum so'zni xato yozadi-yu, lekin o'rtog'ining daftarida shunday yozilgan so'zning xato ekanligini topadi. Shunga extiyot bo'lishi kerakki, o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzutaman deb, boshqa xatoga yo'l qo'ymasindalar, daftarlarni bckorga bo'yamasindalar. O'quvchi u yoki bu so'zning xato yozilganligiga to'la ishonsagina, uni to'g'irlash kerakligini anglasin. O'quvchilar daftar tekshirayotganda, o'qituvchi sinfda aylanib yurib ayrim

o'quvchilarga maslahat beradi. Tekshirish uchun berilgan muddat tugagach, o'quvchilar topgan xatolarini aytadilar. O'quvchi xato yozilgan deb hisoblagan so'zini, alohida qog'ozga yozadi, oxirida o'qituvchi ishtitokida buni aniqlab, keyin uni tuzatadi.

Xatolarni tuzatishda o'quvchining uyida mustaqil ishlashi juda katta ahamiyatga molikdir. Yo'l qo'yilgan xato bilan bog'liq qoidani o'qib kelish, unga mos mashqni bajarish, lug'at uslida ishslashning nalijsi beqiyos kattadin O'quvchi ko'p xato qilib, past baho olaversa, ruhiy tushkunlikka tushib savodlilikka bo'lган ishonchini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bunday xol yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'quvchining ruhini ko'tarishi, savodli bo'lib ketishga ishonch hosil qilishi, o'quvchining irodasini tarbiyalashi, unda orfografik mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otishi kerak. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishslash tizimi bunday o'quvchilarning orfografik malakasiga bog'liq bo'lib, yakka yondashuvni talab qiladi. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishslashni ayrim qoidalami so'rashdan boshlagan ma'qul. Ma'lum bir qoidaning mustahkam o'zlashganligi haqida ishonch hosil qilgach, navbatdagisiga o'tiladi. Shu asosda mashg'ulot asta- sekin murakkablashib boradi.

Mana shu yo'l bilan ko'p xato qiladigan o'quvchilar orfografiyani puxta o'zlashtirib boruvchi o'quvchilar bilan tcnglashtiriladi. Ish jarayonida o'quvchining bu sohada erishgan yutuqlarini uni o'ziga sezdirish, buning sabablarini birga muhokama qilish ham muhimdir.

Odatda, yosh bola oilada ota-onada till (dialkti) da so'zlashni o'rganadi. Maktabda esa adabiy tilni egallay boshlaydi. Adabiy til unga odatdagi tilidan boshqacharoq tuyuladi. Shu bilan birga o'quvchilar maktabda mahalliy shevada ham gaplashadilar. Hatto shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchilar maktabda, o'qituvchi oldida adabiy tilda gaplashishga harakat qilsa ham, boshqa sharoitda o'z mahalliy shevasida gaplashishini davom ettiradi, bu hol oqibatda o'quvchilarni yozma ishlarga ta'sir ctadi, Ayrim dialektal xatolarni tugatish uchun maxsus mashqlar o'tkazish ham tavsiya qilinadi, Bunda yozma ishlarning ijodiy diktant turidan yoki ko'chirib yozish usulidan foydalaniladi. Masalan, ko'pchilik qaysi qoidada dialektal xato qilgan bo'lsa, uni orfografik jihatdan to'g'rilab doskaga yoziladi. Buning talaffuzi bilan yozilishi qiyos qilinadi. Keyin bu to'g'irlangan so'z ishtirokida matnlar, jumlalar tuzdiriladi. Umumam dialektal xatolarni tugallash o'qituvchidan turli usullardan foydalanishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bar darsda o'tilayotgan mavzuni o'quchilarni dialektal xatolarini yo'qotish, ulami to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan bog'laydilar. Talaffuzi qiyin bo'lган so'zlamning dialektal shakli bilan adabiy talaffuzdagi shakli qiyoslangan jadvallar tuzish muhim ahamiyatga egadir.

<b>Adabiy tilida</b>	<b>Shevada</b>
Narvon	Shod
Qozon	Qozan
Chumoli	Chumoliq
Keladigan	Keladigon
Gugurt	Gurgut
Pomidor	Patinjon

Dialektal xatolarni bartaraf qilishga darslikda berilgan matnlardan talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan so'zlarni toptirish ham ijobjiy natija beradi. Lug'at ustida ishlasli jarayonida ham o'quvchilaming dialektal xatolarini tuzatib borish talab qilinadi.

Punktuatsion xatolar va ulami bartaraf etish yo'llari. Tinish belgilarini qo'llashida turli xil usullar bor:

1. Tinish belgilarining qo'yilishi ohang usuli asosida belgilanadi,
2. Tinish belgilarining qo'yilishi faqat mantiq va sintaktik asosda belgilanadi[4].

Punktuatsiya usullari tilning fikriy va gramatik vositalarini hisobga olish asosida tuziladi (ohang ham shunga kiradi). Har qanday ohang va to'xtalish yozuvda belgi bilan ko'rsatilavermaydi, balki nutqning fikriy tomoniga ta'sir eta oladigan, ma'lum gramatik ahamiyatga ega bo'lgan to'xtalish va ohanglargina belgi bilan ko'rsatiladi. Masalan, boshlang'ich sinf ona tili darsida «Gap» mavzusi bor. Unda darak gapning oxiriga nuqta, so'roq gaplaming oxiriga so'roq, undov gaplar oxiriga undov belgisi qo'yilishi o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Demak, tinish belgilarining bir turi og'zaki nutqda ohang orqali berilgan holatni ifodalaydi. Tinish belgilarining boshqa turi og'zaki nutqda ohang bilan emas, balki boshqa gramatik vosita bilan ifodalangan holatni bildiradi. Masalan, undalma gap bo'laklari bilan gramatik tomondan bog'lanmagani uchun vergul orqali ajratiladi. Tinish belgilarning yana boshqa bir turi na ohang yordami bilan, na boshqa gramatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin bo'lмаган holatlarni ko'rsatadi (masalan, qo'shtirnoq). Bular to'g'ridan-to'g'ri nutqning fikriy jihatiga asoslanadi:

Men «Zaynab va Omon»ni o'qidim. Punktuatsiya o'qitishda onglilikni ta'minlash uchun o'qituvchi sintaksisdan o'tiladigan mavzulami punktuatsiyaga bog'lashi juda zarur. O'quvchi har bir gapning mazmuniga to'la tushungan bo'lishi bilan birgalikda, undagi tinish belgining nima uchun ishlatilganligi, uning sintaktik vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur

qilib ko‘rish kerak. O‘quvchi o‘rgangan punktuatsiya qoidalarini yozuvda va og‘zaki nutqda to‘g‘ri qo‘llay bilishi kerak.

Punktuatsiyani o‘rganish ohang, kuzatishlar, to‘xtalish va mantiqiy urg‘u ustida kuzatish ishlari bilan bog‘lab olib boriladi. Punktuatsion savodlilik-bu, tinish belgilarini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashdangina iborat bo‘lmasdan, sinf bilan birga, matnni ifodali o‘qiy bilish ham demakdir. Bexato o‘qiy olgan bola, albatta, bexato ham yozishi kerak. Savodxonlik-boshlang‘ich ta‘lim dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

**Xulosa:** Yozma nutq savodxonligi boshlang‘ich ta‘lim dasturining asosiy maqsadlaridan biridir. Bexato o‘qiy olgan bola, albatta, bexato ham yozishi kerak. Yozma nutqda xatoliklarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilar bilan individual alohida-alohida tushintirish olib borish va xatolari ustida mukammalroq o‘rgatish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Azimov E. Ona tilidan muammoli dars. Til va adabiyot ta‘limi, - T.: 1993, 3-4 qo‘shma son, 27 bet.
2. Betashev Sh. Ona tili darslarida o‘yin usulidan foydalanish. Til va adabiyot ta‘lim, -T.: 1993,
3. Bo‘ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlaridan foydalanish. Uzluksiz ta‘lim, 2004, 3-son.
4. Ochilov M ”Yangi pedagogic texnologiyalar”Qarshi,Nasaf 2000-yil.
5. Alavutdinova N. Ona tilim-jonu dilim. Boshlang‘ich ta‘lim, -T.: 2001, 2-son, 6-7 betlar

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI BOLALAR  
IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HAMKORLIK  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Ilmiy rahbar: Mardonov Shukurullo Qo'lidoshevich p.f.d professor  
Yo'lidoshev Dilshod Xusan o'g'li TVCHDPU, talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash va iqtidorini ro'yobga chiqarishning maqsad va vazifalari hamda omillari, jarayonlari haqida fikrmulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtidorli o'quvchi, yosh izlanuvchi, ta'lism jarayoni, omil, boshqaruva faoliyati, iqtidor, ilmiy.

### KIRISH

Iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda jahon miqyosidagi buyuk kashfiyotlarni jamiyatimizning negizini tashkil etadigan buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talabalaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlari O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiatida munosib o'rinn egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o'rinda «Iqtidorli yoshlari kimlar?» degan savol paydo bo'ladi. «Iqtidor» arabcha «qodir bo'lmoq», «qila olmoq», shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha, shuningdek, iqtidorli yoshlari maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'naliishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchilari maxsus

psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassaslarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish; malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda)

ishlashga safarbar qilish; ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlariga iqtidorli

o'quvchilarni keng jalb etish; iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi

ma'lumotlar banki va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish; ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash; oliy ta'lim muassasalari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat

yuritayotgan yetuk mutaxassislar bilan hamkorlik qilish [1].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Umumiy ta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash mazmuni quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish (fundamental fanlar, umumkasbiy fanlar); oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va litsey talablariga asoslangan holda maktabda iqtidorli o'quvchilarning kasbiy, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishi va ta'lim xizmatlarini joriy etish.

Iqtidorli o'quvchini maqsadli tayyorlash dasturlarida ular egallashi zarur bo'lган quyidagi omillar nazarda tutiladi:

fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish; kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirishni chuqur bilish; chet tillaridan savodxonlik; ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlesh, yangi fikr-mulohazalarni

bildira olish ko'nikma va malakalarini egallah; soha bo'yicha yangiliklarni tezkorlik bilan egallah; davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-

quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson sifatida o'zini namoyon etish.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda ustoz-shogird an'anasiqa qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga ilmiy rahbar sifatida o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jalb etiladi. Bunday qobiliyatli o'quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishslash tajribasiga ega bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan o'qituvchilar tanlanadi [2].

Iqtidorli o‘quvchilarning ilmiy rahbarlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: iqtidorli o‘quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturini yaratish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish; iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg‘or

tajribalarni bilish va ularni o‘z faoliyatida qo‘llash; yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish; kompyuter texnologiyasi va video, audiotexnikalar, elektron darsliklarni keng

qo‘llash; maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli o‘quvchilarni moddiy va

ma’naviy rag‘batlantirish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etishning o‘ziga xos tizimi mavjud bo‘lib, unda muassasada mavjud barcha sub’ektlar ishtirok etadi.

Jumladan, maktab direktori va uning o‘rinbosarlari, uslubiy birlashmalar, sinf murabbiysi, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ota-onalar hamda barcha o‘qituvchi-murabbiylar shular jumlasidandir [4]. Mazkur sub’ektlarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o‘z vazifalari bo‘lib, ular yagona maqsadni amalga oshiradilar.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash orqali ta’lim muassasalari o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni, ya’ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo‘sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o‘quvchilarni rag‘batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o‘quvchilar safini kengaytirishga erishadi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik mehanizmini yaratish; iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish (o‘quv

reja, maqsadli dastur); umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mavjud pedagogik sub’ektlar imkoniyati va

salohiyatini shu jarayonga safarbar etish; umumiy o‘rta ta’lim maktablari qoshida «Iqtidorli bolalar maktabi», «Kichik akademiya»lar tashkil etish va ularda iqtidorli bolalarning qiziqishlariga ko‘ra iqtidorlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning bilan birga: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtidorli bolalarni erta aniqlash bo‘yicha pe dagogik, psixologik, ilmiy salohiyat, kasbiy salohiyat kompleks

tashxis dasturlarini yaratish va uni amalga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish; ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktab, oila, fuqarolik jamiyati, ilmiy muassasalarining ijodiy-pedagogik hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jild. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediya- si» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
2. Yo‘ldoshev X.K. Barkamol avlodni tarbiyalash oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiysi. – T., 2012.
3. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: «Akademiya», 2017. 4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**BOSHLANG‘ICH SINF SINF DAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH SHAKLLARI**

*Ergasheva Zuloyxa Abdulvoxidovna  
Namangan viloyat To`raqo`rg`on tuman  
6-sonli umumi o`rta ta`lim maktab  
Boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
Telefon: +998949057610*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf sinfdan tashqari o‘qish darslarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati yoritilgan. Sinfdan tashqari o‘qish darslarini samarali tashkil qilish orqali shaxsga yo‘naltirilgan, milliy urf-odatlarimiz singdirilgan ta’lim-tarbiya orqali ma’naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalash masalalari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “sinfdan tashqari o‘qish burchagi”, savod o‘rgatish, xalq og‘zaki ijodi, kitobxonlik, ertak, qahramon, ijodiy fikrlash, mustaqil, muloqot.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishga kichik yoshdagi o‘quvchilarni ona tilini puxta o‘zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta’lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhum vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Sinfdan tashqari o‘qish dasturining mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki-asosiy bo‘limga ajratiladi.

1-bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturiga ko‘ra 1-sinfda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida savod o‘rgatish darslarida hosil qilingan ko‘nikma va malakalar asosida bolalarning ona Vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o‘quvchilariga kitob bilan muamola qilish, kitob o‘qish qolidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobjiy tomonlarni o‘rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. Bu sinf o‘quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O‘qituvchi bolalarning his-tuyg‘ularini o‘stiradigan kitoblarni o‘qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz,

uning go‘zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o‘tmishi, insonlarning orzu-istiklari bilan tanishtiradi. Ularda bilinga havas uyg‘otadi.

2-sinfda o‘quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o‘qituvchining yordami va topshirig‘i asosida mustaqil o‘qishga o‘tadilar. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o‘simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o‘qituvchi topib, tanlab o‘quvchilarga o‘qish uchun tavsiya qiladi.

3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlardan, ularning ma’naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. Bu sinflarda o‘qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo‘lgan o‘quvchilar yoshiga mos kitoblarni to‘plashni davom ettiradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsagina, o‘quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti o‘quvchilarga jonajon o‘lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o‘yinlarini tushunishga o‘rgatadi. Ayni vaqtida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma’naviy boyliklari, barcha orzu istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Ertak o‘qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo‘lishga intiladilar. Ertaklar yosh avlodni anashu ruhda tarbiylaydigan baynalminal badiiy quroldir. “Uch og‘ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri” kabi bir qator ertaklar o‘quvchilarning sevimli ertaklaridir. O‘quvchilar bu ertaklardan kishi o‘z mehnatiga ishonib yashash kerakligagini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarini o‘qituvchi yordamida tushinib yetadilar.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, so‘ngra bolalarning qiziqishlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o‘tadilar.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari, o‘qish samaradorligini ijobjiy tomonga ta’sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o‘qish darslari boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan barcha predmet dasturlarining bo‘limlari bilan bevosita bog‘liq. O‘qish darslarida o‘tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o‘quvchini ijod qilishga undaydi.

Har bir sinfda sinfdan tashqari o‘qilgan barcha asarlarni o‘quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga,

lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Shungdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o‘quvchilarning diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o‘sadi. Hatto sahnalashtirish o‘quvchini har tomonlama yo‘naltiradi, ya’ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarda ilk tasavvurlarni o‘rgata boshlaydi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlar bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo‘min, Z.Diyor, A.Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboev kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta’lim muassasi o‘quvchilar o‘rtasida turli mavzularda ijod ahli bo‘lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishlari kerak. Bunday uchrashuvlar o‘quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo‘lishini, uni hurmat qilish, asrab-avaylashni o‘rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirish, yorqin obrazlar yaratish bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtradi. Ertaklar-yaxshilikka yetaklar deganlariday o‘quvchi ertaklar bilan tanishar ekan mard, jasur, vatanparvar, mehribon bo‘lishga, topishmoqlar o‘qir ekan, topog‘on, bilimdon, zukko bo‘lishga intiladi. Shu bilan bir qatorda sinfdan tashqari o‘qish darslarini samaradorligini o‘stirishda “Sinfdan tashqari o‘qish” burchagini yuritish juda katta ahamiyatga ega. “Sinfdan tashqari o‘qish” burchagi turlicha bezatilishi mumkin. Bu ishlar o‘quvchilarning mahoratiga va ijodkorligiga bog‘liqdir. “Sinfdan tashqari o‘qish burchagi” qanday bezatilmasin, u yerda topshiriq, rasm va shu kabilarni ishlab ilib qo‘yish uchun taxta yoki kitob javoni bo‘lishi shart.

Masalan: “Mehnatsevarlik” mavzusida quyidagi interfaol usuldan foydalanish mumkin.

Mehnat-mehnatning.....rohat	Mehnat.... keltirar
Hunar-hunardan .....unar	Ishlagan tishlaydi, Ishlamagan .....
Ishlaganing uyingga, o‘rganganing .....	Halol mehnat yaxshi odat, berar senga .....
Yigit kishiga .....	Xarakating erta bo‘lsa Ko‘zda .....o‘rasan.

### Adabiyotlar:

1. T. G‘afforova “Boshlang‘ich ta’limda zamонавиј pedagogik texnologiyalar” “Tafakkur”, nashriyoti, Toshkent – 2011 yil
2. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya. -T.: 2007.
3. T. G‘afforova, Sh. Nurullayeva, O‘qish kitobi, 2-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma-T., “Sharq”, 2012

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'TISHDA  
AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH**

*Arslonova Marg'uba Xabibullayevna  
Namangan viloyat To`raqo`rg`on tuman  
6-sonli umumi o`rta ta`lim maktab  
Boshlang'ich sinf o`qituvchisi  
Telefon: +998945041700*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlag'ich ta'lif tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari xusisida fikr yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium

O'quvchilarning bolajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim orin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqealarning hodisalarini o'r ganuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Bilim odamlar miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi [1].

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yol qoymaydi.

2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.

3. Amaliyot bilish jarayonining haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bolib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi.

Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bolishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100°C da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bolsa, u aniq -konkret hisoblanadi.

Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi.

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, mакtab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga [2]:

1. Oquvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Tabiatshunoslik darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va toplashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. Osimliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar. Osimliklarni yoshini tabiatda nafaqat yillik halqalardan balki osimliklarni yillik shoxlanishiga qarab aniqlash mumkin. Osimlik bahordan kuzgacha o'sish davriga ega, kuzdan bahorgacha tinim davri boladi. Bu osimlikning bir yoshi demakdir, ikkinchi yilda yana o'sish, shoxlanish sodir bo'radi. Shoxlanish orasidagi masofa o'simlikning bir yoshi hisoblanadi, buni o'quvchilarga tabiatda tushuntirish talab etiladi. O'quvchilar amaliy bilimga ega

bo'ladilar, daraxtlar yoshini kesmasdan turib ham aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Bu ekologik, hamda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari ti/imida amaliy ishlar tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar o'quvchilarni ular faoliyatini jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktab oldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar "Atrofimizdagi olam" darsligini o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan o'rghanadilar. Bu mashg'ulotlarda oquvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalilaniladi. Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy ob'ektlar kiradi [3].

Tabiiy qurollar-tabiat jismlaridir. Ular o'rGANILAYOTGAN mavzular to'g'risida, bolalarda tabiat haqida tushunchalar hosil bo'lishiga imkon beradi. Chunki sinfda jonli tabiatni o'rganish uchun har xil xona o'simliklari hamda o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lган shoxchalar, barglar, gullar, meva va urug'lar bolishi mumkin. Tabiatshunoslik darslarida tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek gerbariy va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalilaniladi. Shuningdek, tabiiy ob'ektlardan hayvonlarni o'rganishda ham foydalansa boladi. Ko'pgina hayvonlarni bolalarga sinfda (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham ekskursiyalarga afzallik berish kerak boladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini emas, balki xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tirik hayvonlar bo'limganda ularning chuchelalari (tulumlari), mulyajlari yoki fotosuratlari va rasmlaridan foydalinish mumkin. Jonsiz tabiatni o'rganishda ham tabiiy tarqatma materiali, masalan, har xil rangdagi granit, kvars, dala shipati, loy, qum, kal'sit (bo'r, marmar, ohak, har xil toshko'mir, temir, mis rudalarining namunalari, shuningdek metallar hamda qotishmalar) temir, cho'yan, polat, alyuminiy, tuproq namunalari va boshqalar bo'lish mumkin. O'quvchilarga bevosita qabul qilish mumkin bo'limgan tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlar hosil qilish uchun ko'rsatiluvchi qurollardan foydalilaniladi. Tabiatshunoslik bo'yicha devoriy o'lkashunoslik suratlaridan, foydalinish mumkin. Ular tabiatning o'lkashunoslik ob'ektlari to'grisida tasavvur va tushunchalar shakllantirishga yordam beradi. Sinflarda bosma rasmlari, ularni ifodalovchi matnlari, o'quvchilar uchun savol va topshiriqlari bo'lган "Kuzatishlar kundaliklari" dan foydalinish zarur.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005yil
3. A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiyl o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiyl o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
5. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O`quv qo'llanma Buxoro-2020.
6. G.M. Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. Buxara-2020

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI

*Ikromjonova Dildora Rasuljonovna*

*Namangan viloyat To`raqo`rg`on tuman  
6-sonli umumiy o`rta ta`lim məktəb*

*Boshlang'ich sinf o`qituvchisi*

*Telefon: +998332129599*

**Annotatsiya:** Hozirda mamlakatimizda ona tilini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, maktablarda, ta'lim muassasalarida ona tilini o'qitishda turli innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** ilmiylik, tizimlilik, izchillik, onglilik, ko'rsatmalilik, faollik, mustaqillik prinsplari, ijodiy tafakkurni o'stirish, matn yaratish.

Ona tili - har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsplari hisoblanadi. Bu prinsplar har fanda o'ziga xos tadqiq etiladi. Biz quyida ona tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan prinsplar xususida so'z yuritamiz.

**Tizimlilik va izchillik prinsipi.** O'zbek tili o'qitishda tizimlilik va izchillik prinsipi muhim o'rinni tutadi. Til fanining bo'limlarini bir tartibda o'rganish shu prinsipa mos tushadi. Ona tili fanini o'rgatishda dastlab fonetika, leksika haqida, shundan so'ng so'z yasash, so'z tarkibi, morfologiya va sintaksis haqida ma'lumot beriladi. Bu esa yuqorida prinsipa amal qilinganligini bildiradi. Ona tili o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash ham muhimdir. Buning uchun fonetika va grammatikadan har bir mavzu orfografiya yoki punktuatsiya bilan, orfoepiya yoki lug'at bilan bog'liq holda o'tilishi lozim. Bu prinspi amalga oshirish uchun grammatik qoidalarga mos misollarni jonli nutqdan olish, qoidalarni mustahkamlashda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanish zarur bo'ladi.

Ona tili o'qitishda onglilik ham muhim o'rinni egallaydi. Onglilik prinsipi ta'rif yoki qoidaning o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga tirishmoqni talab etadi:

1. O'qitishda ongli verbal-kognitiv ta'limga (OVKT) asoslanish
2. Til materiali va ta'lim oluvchilarning yosh psixologiyasi mutanosibligiga e'tibor berish.

3. O'quvchilarda mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini mustahkamlash
4. Darsni ma'lum bir tizimda olib borish
5. Mavzulararo bog'lanishga e'tibor berish
6. Nutqiy malakalarni mustahkamlash va til sezgirligini oshirish **Mustaqillik va faollik prinsipi.**

Mustaqillik va faollik orqali o'quvchi ta'limining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratilsa, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo'ladi. Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish qo'yilgan muammo, savol va topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.

Buning uchun o'quvchi har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirib borishi, ravon va aniq so'zlash malakasini egallashi darkor. **Ilmiylik va tushunarlilik prinsipi.**

Ilmiylik prinsipi o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etadi. Tushunarlilik prinsipi esa o'quv predmetini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqozo etadi. Bu ikki prinsip bir-birini to'ldiradi. Bu prinsiplarni amalga oshirishda quyidagilarga etibor berish talab etiladi:

- til sathlarini o'zaro bog'liqlikda o'rgatish;
- o'qituvchining fan yangiliklaridan xabardor bo'lib turishi kerak;
- o'qituvchi butun fikrini ilmga asoslanib bayon etishi lozim;
- til va nutqni farqlab o'qitishning, ixcham va talaffuz meyorlariga mos bo'lishi;
- ayrim o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish.

#### **Ko'rsatmalilik prinsipi.**

Ko'rsatmalilik o'quvchilar bilimini oshirish va o'qituvchining mehnatini samarali qilish vositalaridan biridir.

Ko'rgazmali quroldan yangi bilim berishda ham, o'tilganlarini qaytarish va ayrim faktlarni izohlashda ham foydalanish mumkin. Ko'rgazma sifatida turli jadvallardan, boshqotirmalardan, fikrlash jarayonini tezlashtirishga qaratilgan o'quv topshiriqlaridan, kompyuterda ishlashga yo'naltirilgan dasturlardan, audiyo-video o'quv dasturlaridan foydalanish mumkin.

O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari 1.

#### **Til o'qitishda tabiiylikka rioya qilish.**

Maktabda til o'qitish maktabgacha tilni o'zlashtirish jarayonining tabiiy davomi bo'lishi kerak. Tilni o'qitishda tabiiylik prinsepiga amal qilishda o'quvchilarning boshlang'ich sinfda olgan bilimlarini hisobga olish, til materiallarini jonli nutq tarkibida o'rgatishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

2. Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish.

Og'zaki va yozma nutqni o'zaro chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, ular orfoepik va orfografik qoidalarning farqlarini ongi ajratadigan bo'ladi. Bunday o'qitish o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi. Bu prinsip quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: tovushni harf bilan chog'ishtirish, punktuatsiyani ohang bilan chog'ishtirish, og'zaki mashqdan yozma mashqqa qarab borish.

**3. O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirib borish prinsipi.**

Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi. Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega. **4. Til bo'limlari va ular orqali ifodalangan ma'nolarni ajratish.**

O'quvchilar tilni yaxshi egallashlari uchun uning fonetikasini puxta bilishlari lozim. Fonetik qoidalalar esa talaffuz meyorlarini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Fonetikani yaxshi o'rgatish imlo, leksikologiya va grammatikani yaxshi o'rgatishga ham yordam beradi. **5. O'quvchilarda yoshlikdan "til sezgirligi" tuyg'usini shakllantirish.**

Bu qobiliyat tufayli o'quvchilar har bir so'z va shaklni o'zidagi mavjud bilim va malakalar yordamida tez uqib, ularni amaliy nutqqa tadbiq etadilar.

**6. O'quvchilarning yozuv madaniyatini, savodini uzlucksiz oshirib borish.**

O'quvchilarning orfografiya va punktuatsiyaga doir bilim-malakalarini oshirish uchun og'zaki va yozma nutq doimo qiyosiy ravishda o'rganilishi kerak. Masalan, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish uchun oquvchi gapning sintaktik qurilishini yaxshi bilishdan tashqari nutqning ohang tomonini ham fahmlay olishi zarur.

Og'zaki nutq bilan yozma nutq orasidagi munosabatni to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarning yozuv malakalari ham takomillashib boradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Pespublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997-y 29avgust.
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
3. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y.

**ТАЛАБАЛАР ТУРАР ЖОЙИНИ БОШҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ  
ОПТИМАЛ ПЛАТФОРМАСИНІ ЯРАТИШ**

*Андижон давлат университети, техника ғанлари номзоди*

**Маҳкамов Мадаминжон Комилович**

*Андижон давлат университети 2-босқич магистранти*

**Солижанов МұхаммадАли Омонилло ўғли**

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг «Республика олий таълим муассасаларида талабаларни турар жой билан қамраб олиш даражасини ошириш чоралари тўғрисида»ги қарори лойиҳаси эълон қилинди.

Қарор лойиҳасига кўра, Республика давлат олий таълим муассасаларида талабалар турар жойларини қуриш, реконструкция қилиш, жиҳозлаш ва улардан фойдаланишни ташкил этишнинг давлат-хусусий шериклик асосидаги тизими жорий [этилади](#).

Бунда, давлат-хусусий шериклик муносабатлари Ўзбекистон «Давлат-хусусий шериклик тўғрисида»ги қонуни ҳамда Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 апрелдаги 259-сон қарори билан тасдиқланган «Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартиби тўғрисида низом» асосида амалга оширилади.

- 2021 – 2025 йилларда олий таълим муассасаларида талабаларни турар жой билан қамраб олиш даражасини ошириш дастури, унинг таркибида қуидагилар:
- 2021 – 2025 йилларда тармоқлар ва худудларни ривожлантиришнинг тасдиқланган концепциялари ва дастурлари, Ўзбекистон Президенти ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қуриладиган талабалар турар жойлари рўйхати;
- 2021 – 2025 йилларда давлат-хусусий шериклик асосида талабаларни турар жой билан қамраб олиш даражасини ошириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар;
- Давлат-хусусий шериклик асосида талабалар турар жойларини қуриш, реконструкция қилиш, жиҳозлаш ва улардан фойдаланишни ташкил этиш лойиҳаларини маҳсус ҳисобварагдан кредит билан таъминлаш ҳамда давлат шериги маблағлари ҳисобидан қисман молиялаштириш тартиби тўғрисида низом тасдиқланади.

Қарорда белгиланишича:

malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo‘g‘inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o‘z aksini topadi. O‘quv materialini to‘g‘ri taqsimlash ya’ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o‘tishni talab qiladi. Pedagogik amaliyotda bu tamoyilning ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi. 1. O‘quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to‘liq o‘zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlami mantiqiy tugallangan bilim bo‘laklariga ajratib o‘qitish. 2. Mazmunini to‘liq ochib berishga ko‘zingiz yetmagan biron bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmaslik. 3. Mantiqiylikni hech qachon buzmaslik, buzilgan taqdirda o‘zlashtirilmaslikning oldini olish uchun uni darrov bartaraf etishlik. 4. O‘quv fani - katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatib berishlik. 5. Nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘ri ketayotganini doimo tekshirib borishlik: o‘rganilayotgan ob‘yekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uning qoilanishi chegaralarini doimo eslatib, ularning bajarilishini tekshirish. 6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go‘yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun bolalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish zarurligi. 7. Boshlang‘ich, umumta‘lim va oliv ta’lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi muvofiqlikni saqlash. 8. O‘qitishning ilg‘or usullaridan doimo foydalanish. 9. O‘qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o‘tilgan bilimlarni doimo qaytarib turish. 10. O‘tgan bilimlarni qaytarish usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalanish. 11. O‘tgan bilimlar bilan tez kirishib ketuvchi yangi gaplardan boshqa yangi fikrlarni bildirmaslik. 12. O‘quvchilar til savodxonligini faqat til o‘qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, barcha o‘qituvchilar ham bu ishni bajarishlari lozimligi. 13. Sabr va chidam bilan hamda uzlusiz ravishda bolalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o‘rgatish. 14. Bolalarga o‘qishning istiqbolini doimo eslatib turish. 15. Har bir bo‘lim oxirida, albatta, umumlashtiruvchi mashg‘ulotlarni amalga oshirish. 16. Bolalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib borish. 17. Charchab qolgan bolalar faoliyatini hech qachon sun‘iy ravishda faollashtirishga harakat qilmaslik, faollashtirishda bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqish. 18. Bolalardan egallagan bilimiga ko‘nikma va malaka hosil qilishni talab qilish. 19. Esda saqlash lozimki, majmuaga tushgan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, majmua orqali uni darrov esga tushirish oson. 20. Ya.A.Komenskiyning - hamma narsa uzlusiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganiningizga yo‘l ochib berishi kerak degan nasihatini unutmaslik qoidasi. Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal

qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan no'malumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarga tushunarli bo'lsin. Bunda o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Texnologiya darslarida nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili asosida tashkil etish - ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozim. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar. Nazariya bilan amaliyot birligini bog'lashning har xil shakllari mavjuddir: - har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi; - amaliyot - haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish ko'لامи; - to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi; - ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi; - bilim berishning samaradorligi. uning politexnik ta'lim bilan bog'liqligi bilan belgilanadi; - berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi. Bularning amaliyotda qo'llanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi: 1. Bilim va tarbiya berishda, bola ulaming, o'z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi. 2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish. 3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo'lgani uchun kashf qilinganligini ta'kidlash. 4. O'quvchilarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish. 5. O'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko'rishlarini talab qilish. 6. Maktabning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini amalda ko'rsatish. 7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yo'li orqali bilimni amaliyot bilan bog'lash. 8. Dars berishda, o'quvchilarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish. 9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayoni asosida amalga oshirilishi. 10. Aqdiy mehnatni jismoniy mehnat bilan olib borish. Ta'lim va tarbiya birligi birinchi - maktabda o'quvchi yolg'iz bilim, ko'nikma va malakalarini egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Aqliy va jismoniy mehnat jarayonida xarakter xususiyatlari va hatti harakat ko'nikma va odatlarni tarbiyalaydi. O'tilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash ham uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda ahamiyatga ega. Texnologiya darslarini ko'rsatmalilik tamoyili asosida tashkil etish - o'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda

o‘zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun. Bu tamoyil o‘qitish jarayonida turli sezgilardan: ko‘rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalar hosil qilish uchun mehnat usuli va operatsiyalarini ko‘rsatish keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatmalilik o‘quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o‘tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi (plakat, diafilm). Mustahkam va puxta o‘zlashtirish tamoyili asosida tashkil etish - mustahkam va puxta o‘zlashtirish tamoyilda barcha ilg‘or o‘qituvchilar va pedagog olimlarning ko‘p yillik izlanishlari o‘z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan empirik bilimlar birlashib mustahkamlangan. Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo‘lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o‘zgarishlar kiritdi. Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi. 1. Bugungi kunda ta‘limda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan. Shuning uchun o‘quvchilar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e’tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e’tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko‘proq kuch sarflashiga yordam berish. 2. O‘quvchilar tushunib yetadigan yoki noto‘g‘ri tushunib qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e’tibor berish lozim. Bola faqat yaxshi tushunib yetib, uning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilgan narsasini xotirasida saqlash. 3. Bola xotirasini kam e’tiborli axborotlarni eslab qolishdan xoli qilish maqsadida, ularni turli lug‘at va ensiklopediyalardan foydalanishga o‘rgatish. 4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo‘lishi uchun, ravon, iloji bo‘lsa she’r vazniga solib turib esda saqlashga bolalarni o‘rgatish. 5. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga yoshlarni o‘rgatish. 6. Yod olishni uyga vazifa qilib bermay, uni shu narsaga qiziqtirib qo‘yish va vaqtি-vaqtি bilan bu qiziqishni yangilab turish. 7. Takrorlash mashqlarini bola yangi bilimni egallagan paytdan boshlash. Chunki bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq. 8. Bola diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillar faoliyatiga yo‘l qo‘ymaslik, dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib borish, bilim olish sur’atini pasaytirmaslik. 9. Beriladigan bilimga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamaslik. Zo‘rlab berilgan bilim bola xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmaslik. 10. Bilimni egallash sur’ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlash va bartaraf etish. Odatda, bilim olish sur’atining pasayishi charchagandan keyin paydo bo‘ladi. 11. O‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni qaytarish eslab qolishning muhim omili ekanini unutmaslik va o‘zini-o‘zi tarbiyalashga katta e’tibor qaratish. 12. Qaytarish darslarini shunday tashkil qilish kerakki, u faqat bilimni xotirada tiklashga xizmat qilmay, fikr yuritishga ham foydasi bo‘lsin. Shuning uchun qaytarish darslarini asosiy dars tizimida o‘tmay, uning hajmini ko‘paytirish, yoki kamaytirish. 13. Berilgan bilim xotirada mustahkam

saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko‘rgazmali qurollardan foydalanib turib berish. 14. Yangi beriladigan bilim xotirada mustahkam qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog‘lab berish. 15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o‘rganish. 16. Oson va bir turdag‘i topshiriq berishdan tiyilish, ular bolalarga qiziq bo‘lmay ularni toliqtiradi. 17. Mashqlar o‘tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to‘g‘risida ma’lumot berish. 18. Mashq davrida o‘quvchilarni charchab qolishdan saqlash. 19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to‘g‘ri foydalanish. 20. O‘quvchilarni o‘z mehnatini nazorat qilish va baholashga o‘rgatish. Politexnik tamoyili asosida tashkil etish - texnologiya fani bosqichlari orasidagi izchillik politexnik tamoyili katta ahamiyatga ega. Ustaxonalardagi mashg‘ulotlarda o‘smirlar quyi sinflarda o‘zlashtirgan qator politexnik malakalarni qo‘llashi va takomillashtirishi juda muhim. Qog‘ozni rejalashda chizg‘ich, go‘niya va qalamdan foydalanish malakasini egallash va metallni rejalashda qo‘llash kerak. Bu jihatdan o‘quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo‘ladi. O‘quvchilar qog‘ozni, gazlamani va listli qaychi bilan qirqish orasida ko‘pgina umumiylikni topadi. Modellashtirish jarayonida o‘quvchilar yana shu ish bo‘yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo‘llashi va hokazolar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi. Texnologiya darslarini unumli mehnat asosida o‘qitish tamoyili ayrim pedagogika nazariyotchilari o‘qitishni unumli mehnat bilan qo‘sib olib borib bo‘lmaydi degan fikrni ilgari surgan edilar. Texnologiya ta’limi darslarida bajariladigan ishlar mashq asosida olib borilsa yetarli bo‘ladi degan noto‘g‘ri fikrni ilgari surgan edilar. Lekin hayot shuni ko‘rsatdiki bu fikr noto‘g‘ri ekanligini ya’ni o‘quvchi o‘z mehnatining yakunini ko‘rgandagina unda mehnatga qiziqish hamda mehnat kishisiga hurmat ortishi isbotlangan. Shuning uchun ham texnologiya darslari unumli mehnat asosida olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. XULOSA Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma’noda izohlanadi: a) o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar; b) ular tomonidan o‘zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sababli o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tatbiqiga ega bo‘lmagan bilimlar tez orada unutiladi. Texnologiya fanining didaktik tamoyillari, ya’ni dastlabki qoidalari ana shulardan iborat. Ularga amal qilingan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirib borishi, o‘quvchilarning aqliy va axloqiy sifatlarni egallashlari, shuningdek, ularda shaxsiy tajribalarning hosil bo‘lishiga zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.
2. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
3. Расулова З.Д. (2018). Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. Ученые XXI века, Т. 47, № 12, С. 34-35.
4. Rasulova Z.D. (2020). Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. International Journal of Scientific and Technology Research. 9:3, pp. 2552-2155.
5. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Формирование профессиональнопедагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий. Молодой учёный, №8 (112), С. 977-978.
6. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Инновационная деятельность педагога в образовании. Молодой учёный, № 8 (112), С. 978-979.
7. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Методологические основы системного подхода при подготовке учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 93:13, С. 588-590.
8. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Модель подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой учёный, 93:13, С. 590-592.
9. Кулиева Ш.Х., Хамроева Х.Ю., Расулова З.Д. (2013). Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 56:9, С. 383-385.
10. Каххоров С.К., Расулова З.Д. (2020). Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов. Проблемы педагогики. 49:4, С. 26-29.

**MAKTABGACHA TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARNING TURLARI VA  
ULARNI OLIB BORISHGA DOIR TALABLAR**

*Davirova Xulkarxon Berdibekovna  
GulDu Ta'lim va Tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(muktabgacha ta'lim) magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning mazmuni maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining qiziqish va faollik darajasini oshiradigan didaktik o'yinlarga bag'ishlangan. O'yin usullari o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, dunyoqarashni kengaytiradi, ijodiy fikrlashni, badiiy tasavvurni, xotirani, kuzatishni, sezgini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** o'yin usullari, ijodiy fikrlash, badiiy tasavvur, dunyoqarash, sezgi, qiziqish, o'quv materiali, didaktik o'yinlar.

**Abstract:** The content of this article is devoted to didactic games which increase the interest and activity level of future music teachers. Playful methods contribute to the long-term learning of educational material, broaden the outlook, develop creative thinking, artistic imagination, memory, observation and intuition.

**Keywords:** game methods, creative thinking, artistic imagination, music teacher, outlook, intuition, interest, educational material, didactic games

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzlusiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, tarbiyachilarining qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimining birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz, alohida qayd qilib o'tgan1 . 1 Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining Bu o'z navbatida pedagoglarning jahon miqyosdagi yutuqlarni, ilmiy asoslangan innovatsiyalarni tadbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, shuningdek, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi didaktik o'yinlardan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy - jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik,

mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarda ta'lif olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan tarbiyachi kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'zin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlataladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lif - tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar mактабгача va mактаб yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagogika oliv o'quv yurtlarida bo'lajak tarbiyachilarni va olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lif - tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqot olib borishiga asos bo'ldi. Natijada oldingi asrning 60-yillari boshida AQSH so'ogra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta'lif metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o'yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 - yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi: - muammoli vaziyat yaratish; - g'oyalarni shakllantirish; - eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baxolash va tanlash. Ishchanlik o'zin mashg'uloti - mashg'uloti mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi. Ro'llli o'zin mashg'uloti – mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda tarbiyachilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu ro'lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash garovi. Mo'jizalar maydoni mashg'uloti tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yinlar bo'lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali tarbiyalanuvchilarda fikrlash, topqirlilik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni tarbiyalanuvchining bilim olish va o'zin faoliyatining uyg'unligiga qarab syujetli- rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yinli, konfrensiyalar o'zin mashqlariga ajratish mumkin. Tarbiyachi - pedagog avval tarbiyalanuvchilarni individual (yakka tartibdagi) so'ogra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'zin muvaffaqiyatli chiqandan so'ng esa ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki bolalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. Tarbiyachi - pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya

qilishi talab etiladi: 1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi; 2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi; 3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi; 4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi; 5. Mashg'ulotlar davomida musiqiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida konfrensiya mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi. Konfrensiya mashg'ulotlari tarbiyanuvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfrensiya mashg'ulotlarini tarbiyanuvchilarining bilish faoliyatni faollashtirishda dunyoqarashini ko'nikma va malakalarni ortirish kengaytirishda, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfrensiya mashg'ulotini o'tishdan oldin mashg'ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin mashg'ulot mavzusi elon qilinib unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Didaktik o'yinlarni tanlashda tarbiyachilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi: 1. Didaktik o'yinlar tanlash va ulardan foydalanishda tarbiyanuvchilarining yosh xususiyatlari pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi; 2. Tanlangan har bir o'yin tarbiyanuvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi; 3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri. U tarbiyanuvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yin - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan: Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i – tarbiyachining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi. 1. O'yin qoidalari. O'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalalar o'yin maqsadidagi mos holda tarbiyanuvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo'ladi; 2. O'yin mazmuni tarbiyanuvchilarining bajarishi kerak bo'lgan harakatlari

bilan aniqlanadi, O'yin jihizi o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan texnik vositalar, kartochka va ko'rgazmalardan iborat; 3. O'yin natijasi. Qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija tarbiyalanuvchilarni qoniqtirishi kerak . Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga hos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'gri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin. - konselyariya tovarlari - turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skoch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, yelim va boshqalar. - texnika vositalari - proektor, mikrofon, kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor va boshqalar. - musiqa cholg'u asboblari - fortepiano, rubob, dutor, doyira, nog'ora va boshqalar. - mahalliy - tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar. Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlataladigan har bir material bilan ishslash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni taminlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlar: - ishtirokchilar tarkibi bo'yicha - o'g'il bolalar, qiz bolalar uchun o'yinlar; - ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi, raqobatdosh komandalar, guruhlar aro va ommaviy o'yinlar; - o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar; - vaqt meyori bo'yicha - mashg'ulot, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.
4. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va 746 tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
5. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. 2012y. №4 . 8-12 betlar
6. Tolipov O'.No'monova N.Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G'G' Xalq ta'limi.-Toshkent, 2002.-N 3.
7. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar - ta'lim - tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent-2010y

## ХУДОЁРХОН ЎРДАСИ МЕЬМОРИЙ ЁДГОРЛИГИ

*Махамадаминова Саломатхон Махамадали қизи,  
Ўзбекистон Миллий университети  
Тарих факултети II-босқич магистранти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Фарғона водийсининг Кўқон шаҳри худудида жойлашган Худоёрхон ўрдаси меъморий ёдгорлигининг архитектураси ва қурилиш тарихи ушбу мавзу юзасидан тадқиқот олиб борган олимларнинг тадқиқотлари, асарлари воситасида таҳлил қилиниб, қисқача ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Фарғона водийси, Фарғона меъморчилиги, Худоёрхон ўрдаси, пештоқ, сарой, бино, ҳовли, ўрда, меъморий ёдгорлик.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг, миллий қадриятлар ва маданий меросга бўлган эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилиб уларга бўлган муносабат ўзгарди. Жумладан, тарихий-маданий ёдгорликларни сақлаш, реставрация қилиш ва улардан фойдаланиш борасида юртимизда самарали ислоҳотлар олиб борилмоқда<sup>1</sup>. Зеро тарихий меросни асраб-авайлаш ва ўрганиш давлатимиз сиёсатининг устувор вазифаларидан биридир. Ватанимизда худудида ўтган асрларнинг бебаҳо меъморий ёдгорликлари сақланиб қолган. Фарғона водийси ҳам энг қадимги одамлар қарогоҳини ўзида сақлаб қолганлини фан ҳам эътироф этмоқда. Ана шундай ноёб ёдгорликлардан бири Фарғона водийсининг Кўқон шаҳрида жойлашган Худоёрхон ўрдаси меъморий ёдгорлигидир.

Худоёрхон ўрдаси республикамизнинг моддий-маданий мероси рўйхатига киритилган<sup>2</sup>. Фарғона водийси меъморий ёдгорликлари қурилиш услуби кўп ийллик маданий ривожланиш маҳсули бўлиб, ранг-баранг меъморий анъаналарни ўзида акс эттирган.

Худоёрхон ўрдаси меъморий ёдгорлиги ўзининг мукаммал ечими, нозик дид билан ишланган безаклари билан кишиларни ҳайратга солиши табиий. Тарих саҳифаларидан мозийга бир назар соладиган бўлсак, Худоёрхон ўрдаси меъморий ёдгорлигининг нафис ва мафтункор бадиий ечимлари ўз замонасининг юксак маданиятидан далолат беради. Биз биламизки, Худоёрхон ўрдаси XIX асрда қурилган бўлиб, бир қанча ҳовлиларни ўзида

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М.Тинчлиқ,маърифат,бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. ИХТ Ташқи ишлар вазирлари кенгаси 43-сессиясининг очилиш маросимида сўзлаган нутқи.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Моддий-маданий мероснинг кўчмас мулк обьектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисидаги 846-сонли қарори.2019-йил 4-октабрь.

мужассамлаштирган иморат саналади. Бинонинг кўриниши тўғри тўртбурчак шаклда. Ушбу мухташам саройга ташқи ҳовлидаги дарвоза орқали кирилган.

Ўрданинг қурилиши 1863-йилда бошланган бўлиб, 1870-йилда Худоёрхон томонидан ўз ниҳоясига етказилган<sup>3</sup>. Сарой қурилишида Фаргона водийсидан бир неча минг одам қатнашган. Барча қурилиш ишлари қўлда бажарилган. Қурилишни Кўкон хонлигининг турли шаҳарларидан келтирилган 80 нафар уста бошқарган. Режаловчи ва саройнинг бош меъмори Усто Мир Убайдулло эди. Сарой мсъморчилигида Фаргона водийсининг одатий қадимги шакл анъаналари қўлланилган. Саройнинг олди томони марказида катта пештоқ ўзининг салобатли меъморчилиги билан ажралиб туради. Пештоқида учли шаклдаги арки бор, бу ҳам ўз навбатида аркли, кириш эшиги ўрнатилган. Пештоқда безатилган учта думалоқсимон бурж(минора)лар бор. Булар Исавой Маҳзум устанинг ишидир<sup>4</sup>.

Бинонинг кошин ишлари: Усто Абдулло Рошидоний, ака-ука Уста Жалил ва Уста Жамил, Уста Зокир томонидан, ганч ва нақш ҳамда ҳаттотлик ишлари: Мулла Турдиали, Мухаммад Олим сирчи томонидан, ёғоч ва ёғоч ўймакорлиги ишлари: Уста Мухаммадниёз Панғозий ва унинг угиллари, Уста Мелибой, Уста Махсумхужа ва бошка усталар томонидан олиб борилган<sup>5</sup>.

Атрофи боғ-роғ билан ўралган сарой асосий иморатининг томонлари 138x65 м. Бинонинг олд томони рангдор кошинлар билан безатилган. Пештоқ ёnlари ва иморат бурчаклари буржалар билан мустаҳкамланган. Пештоқ бош равоқининг усти ва унинг икки ёнбоши ҳаттотий изоралар билан безалган. Икки ён деворида унча чуқур бўлмаган равоқчалар бор. Олд ҳовли Бухородаги Ситораи Моҳи Хосса саройининг кираверишдаги айвончали ҳовлиси каби элчи, савдогарлар ва боша меҳмонларнинг ҳамда аъёнларнинг мурожаат жойи — кўринишонаси сифатида хизмат қилган. Бу ҳовлининг бир ҳисмида зарринхона ва ўнг томонида алоҳида ҳовличали сарой масжиди бўлган<sup>6</sup>.

Муаррих Мухаммад Солиҳ Тошкандий “Тарихи жадида и Тошканд” асарида янги ўрда бино бўлиши ҳакида шундай ёзади: “...ўтмиш хонларининг ўрдаси шаҳарнинг ўртасида эди. Унинг шимоли-жанубида Умархон Жомеъ масжиди жойлашган. Эски Ўрда ва Жомеъ масжиди ўртасидан Шоҳроҳ (Ўрта Осиё шаҳарларидағи асосий катта қўча) кесиб ўтган. Шоҳроҳнинг икки четида савдо расталари жойлашган. Худоёрхон Эски Ўрдани буздириб, шу қўча яқинига янги Ўрда қурдирди... Жаноби олийларининг мадрасалари ёнидан жой танлаб, текислаб, бир майдон очдилар. Шимол, жануб, гарб томондан ҳам анҳор

<sup>3</sup> Воҳидов Ш. Кўкон хонлигига тарихнафислик.-Т.,2010., Б-100.

<sup>4</sup> Бобобеков Ҳ. Кўкон тарихи.-Т.,1998., Б-213.

<sup>5</sup> Дадабоев Я. Худоёрхон ўрдаси.-Т., 2011. , Б-27.

<sup>6</sup> Аҳмедов М.Қ.Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи.-Т.,1995., Б.84-85.

оқиздилар, анҳор ёнида ер бор эди... Ўрданинг тўрт томонини баланд, данданали деворлар, заррин иморатлар, баланд буйли шамшод ҳамда турли мевали ва мевасиз дараҳтлар экилган хиёбонлари бўлган боф ва чорбоғлар билан ўраб олдилар....”<sup>7</sup>.

Худоёрхон ўрдасининг маросим заллари маёлика ва ганчга ўйилган нақшлар билан уйғунликда мозаикали нақшлар билан безатилган. Шифтлари бўялган. Айвонлар мармар плиталар билан қопланган. Анъанавий фазовий режалаштириш ечимиға эга бўлган Кўқон саройи ўзининг ранг-баранглиги ва декор ёрқинлиги билан ажралиб турган. Ички безакда эса Фарғона меъморчилигига хос услублар ўз ифодасини топган. Мажмуадан саройнинг фақат шарқий олд қисми хоналарининг кириш гуруҳи сақланиб қолган<sup>8</sup>.

1938-йилда Худоёрхон ўрдасида меъмор Обид Зайниддинов бошчилигига таъмирлаш лойиҳаси ишлари олиб борилган. Таъмирлашда уста Қ.Хайдаров, наққош С.Норқўзиев ва бошқа усталар қатнашган. 1974-йилдаги илмий таъмирлаш ва лойиҳалаш ишлари натижасида саройнинг дастлабки ҳолати аниқланган. 1925-йилдан бошлаб ўрдада Кўқон шаҳар шаҳар ўлкашунослик музейи фаолият кўрсатиб келмоқда<sup>9</sup>.

Хулоса қилиб айтганда, Худоёрхон ўрдаси меъморий ёдгорлиги моддий-маънавий меросимизнинг бебаҳо дурдонаси ҳисобланади. Ушбу меъморий ёдгорлик ўзининг таъсирчан кўриниши ва улкан кўлами билан бошқа тарихий обидаларимиздан ажралиб туради. Ушбу меъморий ёдгорликни кўрганда, бир қарашдаёқ чуқур билимга эга бўлган инсонлар томонидан бунёд этилганлигининг гувоҳи бўламиз. Фарғона водийсидаги энг йирик ва ўз даврининг архитектурасини акс эттирган ушбу ўрда ўз қиёфасида Фарғона меъморчилигининг ўзига хос жиҳатларини акс эттирган.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

- Мирзиёев Ш.М.Тинчлик, маърифат, бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. ИХТ Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимида сўзлаган нутқи.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг Моддий-маданий мероснинг кучмас мулк обьектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисидаги 846-сонли қарори.2019-йил 4-октабрь.
- Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. -Т.,1986.
- Аҳмедов М.Қ.Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи.-Т.,1995.
- Бобобеков Ҳ. Меъморчилик тарихи.-Т.,1998.
- Воҳидов Ш. Кўқон хонлигига тарихнафислик.-Т.,2010.
- Дадабоев Я. Худоёрхон ўрдаси.-Т., 2011.
- G'afforov Sh.S.,Yunusov M.A., Sharipov S.I., Saidov M.M. O'zbekiston arxitektura odgorliklari tarixi.- Samarqand., 2011.

<sup>7</sup> Дадабоев Я. Худоёрхон ўрдаси.-Т., 2011. , Б-27.

<sup>8</sup> Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. -Т.,1986., Б.24.

<sup>9</sup> G'afforov Sh.S.,Yunusov M.A., Sharipov S.I., Saidov M.M. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. -Samarqand .,2011., Б.193.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUV**

*Zulfirabonu Sobirova Olim qizi*

*Buxoro viloyat Kogon shahar President ta'lif muassasalari agentligi  
Ixtisoslashtirilgan maktabi Matematika fani ñqituvchisi.*

*Qodirova Avera Raxmonovna*

*Kogon tuman 9- umumiy ñrta ta' lim maktabi  
Boshlangich fani ñqituvchisi*

*Xamroyeva Sevara Komilovna*

*Buxoro viloyat Kogon tuman I 9- umumiy ñrta ta' lim maktabi  
Boshlangich fani ñqituvchisi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'lishi haqida.

**Kalit so'zlar:** Vaqt taqsimoti, sifat samaradorligi, pedagogik faoliyat, didaktik metodlar.

Ta'lif texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lif muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lif amaliyoti bilan aloqador kontseptsiyasidir. "Boshlang'ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lif jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lif jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari

aniq belgilangan tizimdir. . Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi". Boshlang'ich sinflarda ta'lif sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metodbelgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnila ishlatsa, shubhasiz, faoldir. Talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o'quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu faslda hali pedagogik jarayon uchun notanish bo'lган chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandard tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujumni" uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lif mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga hujum qilish yoki baholashga haqqi yo'q.

Boshlang'ich sinflarda "O'qish" darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov O. Umumiyyatli pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O'yin mashg`ulotlari. Toshkent: 1993-y

**“EFFECTIVE ENGLISH TEACHING FOR YOUNG LEARNERS  
CLASSROOMS”**

*Oripova Nilufar Norboyevna  
English language teacher at school 16  
Qashqadarya region Muborak district.*

**Annotation:** Being a good teacher is a challenging thing. There are a lot of responsibilities that should be taken into account. The professional teacher requires continuous development; therefore, how to teach effectively so that the students can reach maximum learning achievement should be put as the highest priority for the teachers. However, it is assumed that it is not all teachers hold the principle. Some teachers just do the teaching as their routine or their job without any effort for developing their professionalism. It was discovered that most of English language teachers in Asia use grammatical-translation method as his or her teaching method (Paul, 2003). The teachers seemingly do not care much about the purpose of language learning itself and there is no real interaction in the classroom. It is assumed that the definition of a good teacher itself is still not clear and internalized well enough by the teacher since it seems every teacher has his or her own believes and perspectives to define what they are all about. There are many terms that tell what a good teacher is e.g. ‘the successful teacher’, ‘the teacher I like best’, ‘the teacher I learn most from’, and the like. Each of the terms delivers different meanings and tastes. In a more formal setting, simply, it can be argued that be a good teacher means be a good facilitator in the classroom, who plans, organizes, manages the instruction that is based a students’ needs and characteristics so that the students can reach maximum learning achievement. In brief, this conceptual paper intended to identify effective teaching is weighed in the English classroom for young learners.

**Keywords:** Effective English teaching; good teacher; young learner

Teaching is a complex process that requires careful organizing for its success. For this reason, teachers should realize the importance of managing for effective instruction, and classroom management should be considered as the highest priority. Nancy and Border (1991) stated that

Effective instruction is the instruction that motivates students to learn affirms the presence a validity of diverse learning style maximizes the climate or conditions for learning in the classroom through the use of instructional design principles that value learning differences and increase the possibility of success for all students. Arranging effective teaching to create effective instruction is one of the teachers’ responsibilities. To have effective learning, the teacher should be effective teachers, the students should

be effective learners. Thus there are three aspects that should be taken into account: teachers' perspective, students' perspective, and learning process are considered the main aspects of effective teaching. What teachers define and how teachers implement the teaching in the classroom is much influenced by the student's success, therefore, teachers should have effective teaching in their classrooms. According to Kyriacou (2007), effective teaching is defined as the successful process of teachers to bring about the desired students learning by some educational activity. Moreover, Nancy and Border (1991) stated that effective teaching can be defined as the way of a teacher in giving the same opportunity to each of the students to be successful learners. From the definitions, it is obviously seen that there are three main variables of effective teaching i.e. the teachers, the students, and the learning activity itself. In the terms of the teacher, effective teaching deals with the teacher's characteristics, The goals of effective language teaching may emphasize cognitive (intellectual-the language itself) aspects of the learning or affective (social, emotional, attitudinal, interactional) and physical aspects of learning (Bloom et.al 1956; cited in Kyriacou, 1997; Cameron, 2001; Pinter,2006; Paul, 2003). Based on reviews of process product (Good and Brophy, 2003; Petty, 2006; Stronge, 2007; cited in Kyriacou, 2009) stated there are 10 Characteristics of effective teaching. The characteristics are teachers' clarity in explaining, how teachers create classroom climate, making use a variety of learning activities, establishing and maintaining momentum and pace for the lesson, encouraging students participation and getting all students involved, monitoring students' progress and attending quickly to their needs, delivering a well-structured and wellorganized lesson, providing students with positive and constructive feedback, ensuring coverage of the educational objectives, and making good use of questioning techniques.

Therefore, to have effective teaching, a teacher should be able to integrate and implement the aspects into their teaching so that the students can reach maximum learning achievement. The perspective of students, effective teaching deals with actively involving (Paul,2003; Cameron, 2001; Kyriacou, 2007) and meaningful learning (Pinter, 2006). Furthermore, Cameron (2001) stated that children are mentally active learners who will try to find meaning and purpose for activities that are presented to them. Actively involving learning means that the students should really experience step by step the learning process. The steps are Noticing, Wanting, Taking a risk, Experimenting, Succeeding, and Linking. They are considered as students centered learning. Furthermore, Gagne (Kyriacou, 2007) stated that the steps should have the three domains of learning i.e., cognitive, affective, motor skill learning domain. All the steps would be useless if they are not based on meaningful learning content. Meaningful is also called contextual. A lesson would be meaningful or contextual if it is reasonable for the students. The students know the reason why they should learn the

lesson. The students do not only do what the teachers want to do. However, they relate the lesson to their life, surroundings, and peer knowledge. From the perspective of learning activity, it is a must for the learning process is sequenced well, which means that it meets students' needs and characteristics. According to Paul (2003), the learning process should be sequenced from receptive to productive skills. The other theorists, i.e Cameron and Pinter hold the almost similar thing with Paul. Cameron (2001) stated that the learning process should be sequenced from Impersonal to more personal themes. In addition, Pinter emphasized that the sequenced should be from a concrete theme to an abstract theme. Teaching is a very valuable profession. The profession requires high-quality teachers i.e. teachers who are not only smart but also well planned. Teachers need to have the ability to plan and organized the lesson effectively. The quality of effective instruction can be reached if both of the teachers and students could coordinate to make the learning process experienced effectively. The teachers are considered effective teachers when he or she fulfills the 10 characteristics (Kryiacou,2007). The characteristics are: teachers' clarity in explaining, how teachers create classroom climate, making use a variety of learning activities, establishing and maintaining momentum and pace for the lesson, encouraging students participation and getting all students involved, monitoring students' progress and attending quickly to their needs, delivering a well-structured and wellorganized lesson, providing students with positive and constructive feedback, ensuring coverage of the educational objectives, and making good use of questioning techniques Then, in terms of the students, the students are considered effective learners when he or she fulfills the 6 stages of their learning. The stages are Noticing, wanting, Challenging, Playing, Succeeding, and Linking. Then in terms of the process, learning is considered effective learning when fulfilling some aspects. The aspects are the learning should be sequenced from receptive to productive skills, from impersonal to personal, from concrete to abstract, from fully controlled to less controlled, and to informal to formal theme activity. Besides, the learning itself should present the four learning domains of learning: Knowledge skills, intellectual skills, Motor skills, and attitudes. Furthermore, related to effective teaching, teachers need improvement in how to organize the instruction best. The teachers might have problems in formulating lesson plans in their day-to-day practices. Presumably, the problem might be due to inaccessible information or discussion of how implementing effective instruction or even the teachers themselves did not adequately proactive to improve their ability to organize the lesson effectively so that the possibility of all students to be the successful learners can be reached easily.

***Reference:***

1. Passov E. I. Obshchitelnyy metod obucheniya inostrannogo razgovora. - Moscow., 1985: - 10 - page.
2. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., - London., 2006: - 235- p.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2001: - 64 pages.
4. Jalolov J. Methods of teaching a foreign language. - Tashkent., 2012: - 48 pages.

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Usmonova Dildora Muratovna  
Uchtepa tumani 245 maktab, Texnalogiya fani o`qituvchisi  
Tel: +998933941010*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining mazmuni, undan foydalanib, texnologiya darsida o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Shaxsga yonaltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqillagini shakllantirish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ijodiy va tanqidiy fikrlash, bilim va kasbiy malaka, interfaol ta’lim, tajriba, samaradorlik.

**Abstract:** This article describes the content of person-centered learning technologies, the pedagogical conditions for the development of the student’s personality in the technology lesson using it. On the basis of person-centered education, issues such as intellectual and emotional-motivational development of students, the formation of knowledge and professional skills, ensuring a value-based approach to the learning process, increasing activity, self-awareness and independence are covered.

**Keywords:** person-centered education, creative and critical thinking, knowledge and professional skills, interactive education, experience, efficiency.

### KIRISH

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini texnologiya fanida qo’llash juda samarali natija beradi. Shu boisdan texnologiya darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari - o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Bu ta’lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos

jihatni ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iboratdir. Texnologiya fani o'quv jarayonlarida bu turdagagi ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchilar guruhi, o'quvchi - o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

### ASOSIY QISM

Shaxsga yonaltirilgan texnologiya asosida o'quvchilarning intellektual va emotsiyal-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini taminlash, faollikni oshirish, oz-ozini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim - o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini qarab chiqamiz:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.
3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligin bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
4. Ta'limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.
5. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
6. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.
7. Kasb - hunar kollejining o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutqmuloqotchanlik), ijitmoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir.
8. Texnologiya fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. - har bir o'quvchinini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi; - o'quvchini hurmat qilishi; - o'quvchilarda mehnatga bo'lgan hurmat hissini uyg'otishi; - o'quvchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi; - o'quvchining mehnat munosabatlariga bo'lgan xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi; - har bir o'quvchiga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi; - o'quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; - texnologiya fani asoslarini yetarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim muhitini

yaratishi; - o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda, mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish; - o‘quvchilarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish; - ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaligi; - alohida o‘quvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi; - bordiyu, o‘quvchi tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, g‘ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; - ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi uchun “muvaffaqiyat muhitini yarata olish; - har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; - o‘quvchining hunarlarni o‘rganish borasidagi qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish; - o‘quvchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi; - pedagog sifatida har bir o‘quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur. O‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagog tomonidan mehnat ta’limi jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi. Xususan: texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Texnologiya darslari jarayonida pedagoglar tomonidan: - muammoli izlanish; - kichik tadqiqotlarni olib borish; - debat; - bahs-munozara; - evristik suhbat; - kichik guruhlarda ishslash va b. - turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish; - amaliy topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish; - o‘quvchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishslashini ta’minlash; - mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga o‘quvchilar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Ayni vaqtida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi turlari farqlanmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari: ✓ ijodiy topshiriqlar; ✓ kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar; ✓ muammoli vaziyatlar; ✓ rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari; ✓ bahs-munozara, debat; ✓ musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar. Bundan tashqari shaxsga yo‘naltirilgan talimning quyidagi asosiy turlari mavjud: Innovatsion ta’lim. hamkorlik ta’limi, interfaol ta’lim, masofaviy ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha ta’limi,

kompyuterli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, modul ta'limi, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim, o'yin texnologiyalari Yuqorida keltirilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlarining barcha turlarini mehnat ta'limi darslarida ham to'gri qo'llay olsak, dars muvaffaqiyatli va ijobjiy samara beradi. Ayniqsa mehnat ta'limida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish samaralidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan "interfaol talim metodlari"ni misol qilib olsak, hozirgi zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li bu mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda [1-30]. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinni, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi anna shu kabi savollarga qisqacha javob berib o'tamiz. Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" - o'zaro, "act" - harakat qilmoq) - o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Mohiyatiga ko'ra interfaollik mehnat talimi dars jarayonlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birligida, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi [1-30]. Mantiqiy nuqtai nazaridan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalandaydi. Texnologiya fani sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi. O'qituvchi - o'quvchi, an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari, o'qituvchi - o'quvchilar guruhi (jamoasi). Interfaol ta'limdagi suhbat ishtirokchilari: - o'quvchi - o'quvchi (juftlikda ishslash); - o'quvchi - o'quvchilar guruhi (guruh yoki kichik guruhda ishslash); - o'quvchi - o'quvchilar jamoasi (sinf, guruh jamoasida ishslash); - o'quvchi - axborot-kommunikatsion texnologiyalar. "Interfaol talim texnologiyalari" mohiyatiga ko'ra suhbatning "to'quvchi - axborot - kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. Texnologiya fani o'qituvchisi interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, mashg'ulot loyihibarlarini to'g'ri tuza olishi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimmi, interfaol talim texnologiyalarini qo'llash orqali mehnat talimi o'qituvchisi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka

asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Mehnat talimi jarayonining interfaol talim texnologiyalariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda o‘qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega bo‘lishi talab qilinadi. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar: Ish tajribasi, metodik malaka, tayanch pedagogik-psixologik bilimlar, tashkilotchilik qobiliyati, didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo‘lish, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikka erisha olishi, ta’lim jarayonida demokratik g‘oyalarning ustuvor o‘rin tutishi, axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarning samarali, o‘rinli, maqsadga muvofiq va o‘zaro moslikda qo‘llashga erishish. Texnologiya fani dars jarayonlarida interfaol talim texnologiyalariga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakkarda tashkil etiladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoa bilan ishlash.

Ko‘p hollarda texnologiya fanida sinfdan tashqari (to’garak mashg‘ulotlari)da har bir o‘quvchiga individual yondashish samarali natija beradi. Interfaol talim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi: guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishslash, tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘sirlarsiz namoyish etish, muammoni hal qilishga ijodiy yondashish, guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish, o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish, fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash, o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash, o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish, turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiga olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish. Interfaol ta’limning asosiy belgilari: ko‘p fikrlilik, suhbat (dialog), fikrlashga asoslangan faoliyat, g‘oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi), tanlash imkoniyatining mavjudligi, muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish. XULOSA Texnologiya fani dars jarayonlarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘qitish, o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag‘batlantiradi, har bir o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi, o‘quvchilarga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan kasblar bo‘yicha fikr hamda munosabatni uyg‘otadi, o‘quvchilarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi, o‘quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirilishini ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.
2. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
3. Расулова З.Д. (2018). Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. Ученые XXI века, Т. 47, № 12, С. 34-35.
4. Rasulova Z.D. (2020). Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. International Journal of Scientific and Technology Research. 9:3, pp. 2552-2155.
5. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Формирование профессиональнопедагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий. Молодой учёный, №8 (112), С. 977-978.
6. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Инновационная деятельность педагога в образовании. Молодой учёный, № 8 (112), С. 978-979.
7. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Методологические основы системного подхода при подготовке учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 93:13, С. 588-590.
8. Аноркулова Г.М., Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2015). Модель подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой учёный, 93:13, С. 590-592.
9. Кулиева Ш.Х., Хамроева Х.Ю., Расулова З.Д. (2013). Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой учёный, 56:9, С. 383-385.
10. Каххоров С.К., Расулова З.Д. (2020). Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов. Проблемы педагогики. 49:4, С. 26-29.

## ZAMONAVIY RAQSLAR HAQIDA MULOHAZA

*Ulug‘bek Doulov*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi  
Urganch filiali talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada Zamonaviy raqlarning yaratilish tarixi, ildizi, nisbiy va lahzali tushuncha ekanligi hamda zamonaviy raqlarning turlari haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy raqlarning asoschilar haqida ma’lumotlar beriladi.

**Kalit so‘z:** Raqs, balet, zamonaviy jazz, breyk-dans, xip-xop, ritm, harakat.

### COMMENT ON MODERN DANCES

*Ulug‘bek Doulov*

*State choreography of Uzbekistan  
A student of the Urganch branch of the academy*

**Annotation:** the article talks about the history of creation of modern dances, its roots, relative and current understanding and types of modern dances. Information about the founders of modern dances is provided.

**Key words:** Dance, ballet, modern jazz, break-dance, hip-hop, rhythm, movement.

### КОММЕНТАРИЙ О СОВРЕМЕННЫХ ТАНЦАХ

*Улугбек Доулов*

*Государственная хореография Узбекистана  
Студентка Ургенчского филиала академии*

**Аннотация:** в статье рассказывается об истории создания современных танцев, ее истоках, относительном и сиюминутном понятии и видах современных танцев. Приведены сведения об основоположниках современных танцев.

**Ключевые слова:** Танец, балет, современный джаз, брейк-данс, хип-хоп, ритм, движение.

Zamonaviy raqs - bu mustaqil ravishda san’at turidan biridir. Zamonaviy raqlarda harakatlar, musiqa, yorug‘lik va ranglar yangi usulda birlashtirilib, tana haqiqatan ham to‘laqonli tilga ega bo‘ldi. Zamonaviy raqs odamlarni san’at hayotning davomi va o‘zini o‘zi anglashiga ishontiradi. Zamonaviy raqlar nisbiy, lahzali tushuncha. Har bir davrning o‘ziga xos musiqiy madaniyati mavjud bo‘ladi. Bu esa o‘z

navbatida yangi raqs turlarini vujudga keltiradi. Har bir raqsni zamonaviy deb atash mumkin, ammo o‘z davri, o‘z vaqt bilan ataladi. Shunday qilib, zamonaviy raqs o‘z davri uchun zamonaviy, moda va dolzarb raqsdir.

Zamonaviy raqlarning maqsadi – insонning his-tuyg‘ulari va kayfiyatini ifodalash. Bu aniq standartlarga ega bo‘lmagan juda yumshoq, ko‘p qirrali raqs uslubi hisoblanadi. Xoreograflar, odamlarning fikrlari va his-tuyg‘ularini etkazishga intilib, doimiy izlanishda va yangi harakatlarni ixtiro qiladilar, ko‘pincha turli xil uslublar va yo‘nalishlarni aralashtiradilar.

Zamonaviy raqsning ildizi mumtoz baletdan boshlanadi. Bir tomondan, zamonaviy raqs klassik baletning rasmiy, qat’iy cheklovlariga qarshi reaktsiya sifatida yaratilgan. Boshqa tomondan, zamonaviy raqs repertuariga kirgan klassik baletning ko‘plab harakatlari va qadamlarini o‘zida mujassam ettiradi. Xoreografiyada zamonaviy yo‘nalishi paydo bo‘lishining sababi XX asr boshlarida klassik balet maktabining inqirozi edi. O‘sha paytdagi raqqoslar klassik raqs an'analaridan yiroq, inson erkinligi to‘g‘risida yangi g‘oyalarni ifoda etish uchun yangi uslublarni talab qilgan edi. Zamonaviy raqs tushunchasi harakatlarning erkinligi va ta’sirchanligidadir, bu esa raqqosalarning his-tuyg‘ularini eng yorqin ranglarda ifoda etish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

O‘tgan asrning boshlarida ko‘plab turli yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Shu o‘rinda zamonaviy raqlarga quyidagi yo‘nalishlarni kiritish mumkin: zamonaviy raqs, kontaktli improvizatsiya, zamonaviy jazz, pop-qulf, breyk-dans, xip-xop, jazz, funk kabi turlarini keltirish mumkin. Zamonaviy raqs g‘oyalari 1830-yilda taniqli fransuz o‘qituvchisi va sahna harakatining nazariyotchisi Fransua Delsart tomonidan kiritilgan edi, u ovoz, imo-ishora va hissiyot o‘rtasidagi aloqani o‘rgangan. Uning ta’kidlashicha, konvensiya va stilizatsiyadan xalos bo‘lgan imo-ishoragini insoniyat tajribasining barcha nuanslarini haqiqat bilan etkazishga qodir.

Zamonaviy raqs tarixi asrning boshlarida boshlanadi, Amerikadagi dastlabki zamonaviy raqsning uchta muzasi Isadora Dunkan, Rut Sen-Denis va Loy Fullerdir. Ular o‘zlarining zamonaviy balet maktablarini - konvensiyalardan xoli san’atni yaratdilar. Improvizatsiya va bepul xoreografiya zamonaviy raqs san’atining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Ular raqlarida falsafa, dramaturgiya, vedvil va qadimiy tarixni turli yo‘llar bilan birlashtirdilar, bu zamonaviy raqs asoslarini yaratish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qildi. XX asr ko‘plab yangi raqs turlari va uslublarini keltirib chiqardi, ulardan eng mashhurlari Lotin Amerikasi raqlari, xip-xop, breyk-dans, kramp, tektonik, ritm va blyuz va boshqalar keng tarqaldi.

Isadora Dunkan va uning bir qator sheriklari an'anaviy xoreografiyanı tanqid qilishdi. Ular o‘z maktablarini ochdilar, u erda zamonaviy balet asoslarini o‘rgatishdi. Ushbu raqs yo‘nalishining asosiy g‘oyasi improvizatsiya va o‘z hissiyotlarini ifodalashga asoslangan erkin xoreografiya bo‘lgan. Isadora Dunkan zamonaviy

raqsning tan olingan asoschisi hisoblanadi. U o‘z faoliyatini XX asrning oxirida boshlagan. Isadora Dunkan - xoreografiyaning novatori va islohotchisi, u o‘z raqlarida musiqiy tarkibning plastik mujassamlashuvi - formalistik klassik balet shakllaridan xalos bo‘lgan. U klassik balet maktabini bepul plastik raqs bilan taqqoslagan. U qadimiy yunon plastmassasidan foydalangan holda, tunikada va poyabzalsiz raqsga tushgan. U birinchilardan bo‘lib raqs uchun simfonik musiqani, jumladan, Shopin, Shubert, Betxoven, Vagnerni ishlatgan. Zamonaviy raqs sohasidagi ikkinchi avlod - Martha Graham, Doris Xamfri, Xelen Tamiris, Xaniya Xolm kabi xoreograflardir. Ularning xizmatlari, avvalambor, ularning har biri nafaqat ajoyib xoreograf va ijrochi, balki o‘z raqqos va raqqosalarini tayyorlash tizimini yaratgan o‘qituvchi bo‘lganligidadir.

Zamonaviy raqlardan keng tarqalgan Jazz raqsi Afrika qabilalari raqlaridan rivojlangan. Jazz raqsi Amerikaga XVII-XVIII asrlarda Afrikadan kelgan qullar tomonidan olib kelingan. Amerikada bo‘lgan qullar tezda o‘zlarining bayramlari va urf-odatlarini tiklashgan va moslashganlar. Barabanlar o‘rniga ular qarsak va tepishlarni ishlatishgan. Bir necha asrlar davomida afrikalik va amerikaliklarning ikki madaniyati birlashdi va natijada noyob yoqish raqsi paydo bo‘ldi. Natijada XX asrga kelib jazz musiqasi va raqsi ulkan shuhrat qozondi. Shunday qilib, 70-yillarning zamonaviy jazz paydo bo‘ldi. Jazz raqsi kundalik, folklor raqlaridan sahna, teatr orqali o‘tib, asta-sekin o‘ziga xos raqs san’ati turiga aylanib, butun Evropani qamrab oladi. Bu maktab dunyoning ko‘plab davlatlarini zabit etdi. Bu raqs turi inson tanasini har tomonlama tarbiyalashga imkon beradi. Jazz raqsi doimiy ravishda o‘zgarib turadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqs nisbiy tushuncha, lahzali va har bir davr o‘ziga xos musiqiy madaniyatga ega bo‘lib, yangi raqs turlarini keltirib chiqaradi. Biroq, zamonaviy raqs uslublari juda xilma-xil elementlarga ega, bu esa ularni yanada demokratik va plastik moslashuvchanligi cheklangan odamlar uchun qulaydir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” davlat nashriyoti., T – 2004
2. Tangurieva S. “Vsya jizn v tantse” – T. 2006.
3. E.Y. Saitova, N.E. Abrakulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” – T. 2015.128b
4. Abrayqulova N. “Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti” – T. 2003 y.,

**O'ZBEK BALETINING SHAKLLANISHIDA BERNORA  
QORIYEVA O'RNI**

*Saparbayev Atabek Sharipbayevich  
O'zDXA Urganch filiali katta o'qituvchisi  
Xudayberganova To'xtajon  
"Lazgi" bo'limi kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek baletining ohangrabodek joziba kuchi va o'zbek baletining shakllanishida katta hissa qo'shgan ajoyib baletmeyster Bernora Qoriyevaning raqlari, o'zbek baletdagi o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** balet, "Kashmir qo'shig'i", klassik raqs, raqs texnikasi, san'atkor, kompozitor.

**РОЛЬ БЕРНОРЫ КАРИЕВОЙ В СТАНОВЛЕНИИ  
УЗБЕКСКОГО БАЛЕТА**

*Сапарбаев Атабек Шарипбаевич  
Старший преподаватель Ургенчского филиала UzDXA  
Худойберганова Тохмаджон  
Младший научный сотрудник отдела "Лазги"*

**Аннотация:** В этой статье будет представлена информация о силе тонального очарования узбекского балета и танцах выдающегося балетмейстера берноры Кариевой, внесшей большой вклад в становление узбекского балета, о роли узбекского балета в балете.

**Ключевые слова:** балет, "Кашмир кушиги", классический танец, танцевальная техника, артист, композитор.

**THE ROLE OF BERNORA KARIEVA IN THE FORMATION OF  
UZBEK BALLET**

*Saparbayev Atabek Sharipbayevich  
Senior teacher of the Urganch branch of UzDXA  
Khudaiberganova Tokhtajon  
Junior researcher of "Lazgi" department*

**Annotation:** this article will tell you about the charm of Uzbek ballet as melonrabodek and the dances of the wonderful ballet master Bernora Kariyeva, who made a great contribution to the formation of Uzbek ballet, about her place in Uzbek ballet.

**Keywords:** ballet, "Kashmir koshig'i", classical dance, dance technique, artist, composer.

Go‘zallik dunyosi insonning shaxsiyatini doimo boyitishi va yuksaltirishi haqida gapirganimizda O‘zbek baleti hayolimizga keladi. O‘zbek baleti – milliy badiiy madaniyatimizning faxri hisoblanadi. O‘zbek baleti o‘tgan asrning 50-60 – yillarida baletning ardoqli, eng kuchli truppalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston baletining solistlari va baletmeysterlarini tomoshabinlar hayajonlanib, dil-dildan olqishlaganlari ham, har bir balet spektaklini samimi kutib olishlari ham, uchrashuvlarda, gazeta jurnallar sahifalarida ijrochilarimizga bergen odilona baholari ham fikrimizni to‘laligicha isbotlaydi.

Shu o‘rinda o‘rinli bir savol tug‘iladi, o‘zbek baletining ohangrabodek joziba kuchi nimada? Uning hamma sahnalarda ham birdek muvaffaqiyat qozonishining siri nimada? To‘g‘ri, yuksak raqs texnikasini mukammal o‘zlashtirish va kishini hayratda qolarli darajada nozik va nafis harakatlar qilish ham muvaffaqiyat qozonishning bir siridir. O‘zbek baletining jozibadorligi bugina emas, balki o‘zbek raqs san’atining namoyandalari azaldan raqs texnikasini egallagani va nafis shakllar yaratish borasida tengsiz “sehrgar” bo‘lganliklaridadir. Demak, mamlakatimizdagi millionlab talabchan, serzavq, badiiy didi baland tomoshabinlarning, shuningdek, chet ellik san’at muxlislarining qalbini faqat o‘zida katta hayotiy mazmunni, yuksak ezgu niyatlarni, beg‘ubor tuyg‘u va axloqiy g‘oyalarni aks ettirgan, go‘zallikni, hayot haqiqatini, ilhombaxsh sevgi sehrini mujassamlashtirgan san’atgina zabit eta oladi. O‘zbek baletining bunchalik maftunkor joziba kuchiga ega bo‘lishi xalq artisti ajoyib balerina Bernora Rahimovna Qoriyevaning nomi va ijodi bilan bog‘liqdir.

“Bernora Qoriyeva 1936-yil 28-yanvarda Toshkent shahrida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Rahim Majidovich Qoriyev oilasida dunyoga kelgan. Yosh balerina Toshkent xoreografiya maktabini va Moskva xoreografiya oliy maktabini tugatgandan so‘ng, ya’ni 1955-yildan Navoiy nomidagi opera va balet teatrinda baletmeyster sifatida faoliyat olib boradi. 1985—1998 yillarda O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi raisi, 1994—2002-yillar Navoiy nomidagi opera va balet teatri direktori va badiiy rahbari sifatida faoliyat olib boradi. Bernara Qoriyeva repertuari asosini jahon mumtoz va zamonaviy baletlar tashkil qiladi”<sup>1</sup>. Raqqosaning bosib o‘tgan san’atkorlik yo‘li o‘zbek baletining yaqin o‘tmishi va buguni, uning istiqboli in’ikosidir. Bu yo‘l hayotbaxsh, ilhombaxsh ruhi bilan yo‘g‘rilgan san’at yo‘lidir.

Bernora Qoriyeva raqlarini ta’riflash ancha mushkul. Uning raqsini faqat ko‘rish, bir kitob yanglig“ “o‘qiy bilish”, faqat yurak bilan his qilish kerak. Gazetxonlar va tomoshabinlar ichida kimki Bernora raqsini ko‘rgan bo‘lsa, u ko‘rgan raqs ma’nosini, mazmunini bir umr esdan chiqarmaydi. Bernara Qoriyeva raqsining o‘ziga xos tomonlari bor. Bu takrorlanmas jo‘shqinlik, teran samimiylilik, ilhombaxshlikdir. Inkor etmaymiz: bizda klassik raqsga tushish texnikasini chuqur egallagan, uning

<sup>1</sup> S.Sagatov, M.Muxamedova O‘zbekiston madaniyatasi va san’ati fidoyilari, T2019.

sirlarini uqqan balerinalar kam emas. Ammo eng mumtoz san'atkorgina klassik raqsning barcha texnikasini, nozikligini to'laligicha, bosh maqsadga musiqada, librettoda mujassamlashtirilgan g'oyani va bosh obrazni ochishga bo'ysundira oladi. Bernora Qoriyeva xuddi shunday mohir san'atkor.

Bernora Qoriyeva Moskva Akademik xoreografiya bilim yurtini bitirib, katta san'at yo'liga kirib, endigina kordebaletda ko'zga tashlanayotgan kezlarida 1957-yilda Moskvada o'tkazilgan klassik raqlarni ijro etuvchi yosh balerinalarning ko'rik tanlovida ishtirok etadi va kumush medal olishga muyassar bo'ladi. Ko'rik tanlovning hakami, Mehnat Qahramoni, Galina Ulanova yosh balet yakkaxonining "Shopennoma"dagi ijrosini ko'rib shunday: "Klassik raqsning mustahkam zaminini egallagani va unga yuksak badiiy didni uyg'unlashtira bilganligi O'zbekistondan kelgan yosh balerina ijodiy yuzini yorqin ko'rsatishga imkon berdi" <sup>2</sup> – deb e'tirof etadi

Shundan so'ng oradan vaqtlar o'tdi, katta ijodiy yo'l orqada qoldi, boy tajriba orttirildi, uning ijodiy qiyofasi shakllandi, o'z ijro uslubiga ega san'atkor bo'lib yetishdi. Ha, har bir kun, har bir yil mahorat cho'qqisi sari ijod pillapoyasi bo'ldi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik Katta teatri sahnasida o'nlab obrazlar yaratdi. Bu obrazlarga mohir balerinaning umri, yoshligi, muhabbati baxshida etilgan. "Men odamlarga nimani aytmoqchi bo'lsam, raqs tilida gapiraman. Chunki o'yinlarimga o'z fikr-tushunchalarimni jo qilaman", - degan edi balenora.

Bernora Qoriyeva jahon klassik asarlari, o'zbek baletida sahnaga chiqib goh Jizel yoki Avrora goh Odetta Odillya yoki Zolushka, Kitri yoki Frigiya, Nurxon yoki Zarina, Mehri yoki Sonni, Nargiz kabi bosh rollarda o'ynar ekan, uning ijrosi yuksakligi, xoreografik mahoratining zamonga ohangdoshligi bilan ajralib turgan.

Bernora Qoriyeva O'zbek xalqining atoqli yozuvchisi, Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning hind xalqining afsonalaridan olib yozilgan "Kashmir qo'shig'i" asaridagi Nargiz obrazining talqiniga kirishar ekan, undagi satrlarga jiddiy e'tibor beradi, muallif so'zidan kelib chiqqan harakatda raqs ifodasini izlaydi.

Kompozitor Ulug'bek Musasaning "Afsonalar vodiysida" baletida haqiqatan ham, Nargiz sahnada birinchi ko'rinishdanoq ko'zni qamashtirarli darajada yorqin, uning variatsiyasi Nargizning extirosli, quvnoq ruhiyatini ifodalaydi. Nargiz obrazini aktrisa balet boshlanishidan tortib, barcha keyingi sahnalarda ham go'zallik timsoli, asrlar osha odamlarni baxt va erkinlikni ardoqlash uchun ilhomlantiruvchi, jasoratga undovchi, nafosat va sevgi timsoli sifatida talqin qiladi.

U ijro etgan har bir partiyada insonni, uning ichki dunyosini to'laligicha ochishga intilgan. Har bir spektaklni tomosha qilgan ixlosmandlar yanada olijanob, go'zal, oqibatli bo'lib qolishlariga, o'rtalaridagi do'stlik va mehr-oqibatni avaylashlariga chorlagan. Aktrisa yaratgan biri-biridan jozibali, bir-biridan ta'sirli turli davrga mansub, turli taqdirga ega bo'lgan sahnaviy obrazlar ko'z oldimizda namoyon bo'lar ekan, haqiqatan ham Bernora Qoriyeva yuqoridagi so'zlariga sodiq qolayotgan

---

<sup>2</sup> "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 1970.

san'atkor ekanligiga ishonasiz. Aktrisaning har bir obrazi jonli portret, har bir obrazi o‘z ichki dunyosiga ega, o‘z quvonchlari va tashvishlari, hayotga o‘z shaxsiy qarashlari bilan ko‘zga yorqin tashlanadi.

Aktrisa Tixon Xrennikovning “Muhabbatga muhabbat” asari asosida baletmeyster Ibrohim Yusupov sahnalashtirgan badiiy jihatdan yorqin, diqqatga sazovar nafis Gerro obrazini yaratdi. Koris va qahramonining plastik teksti, uning yoshlik xarakteri balerina bilan baletmeysterning birgalikdagi o‘y-mulohazalarining ibratli natijasidir. Shu o‘rinda, hamkorlik borasida Ibrohim Yusupovning qaydini keltiramiz: “...Bernora Qoriyeva bilan balet spektakli yaratish juda maroqli, u juda berilib ishlaydi, natijada ish yengil kechadi. Baletmeyster aytmoqchi bo‘lgan uqtirishni bir imo, bir so‘zdayoq ilg‘ab oladi. Uning qalbida qirg‘oqqa uring turgan jo‘shqin fantaziya dengizi bor. Bernora bilan ishlashning murakkab tomoni ham borligi sir emas; U tinimsiz izlanuvchi san’atkor. Shunday vaqtlar ham bo‘ladi: nazarimizda, rol ustidagi ishimizni nihoyasiga yetkazgan bo‘lamiz, plastik matn yod bo‘lib ham ketadi, lekin Bernora hamon yangi ifoda vositalarini, yangi shtrixlarni qidirishdan to‘xtamaydi. Raqs partiturasiga yangi bo‘yoqlar kiritadi. To‘gri, bu qo‘srimchalar unchalik katta, unchalik ilg‘ab olinadigan bo‘lmasada, keyinroq bu tahrir yangi spektaklga sayqal berishini, zaruriy kiritilganini tushunib mammun bo‘lasiz”<sup>3</sup>.

Doimiy ijodiy notinchlik, o‘z ishidan to‘la qanoatlanmaslik, muttasil izlanish ruhi, u yo bu o‘ynaladigan partiyada o‘z so‘zini aytish uchun intilish, obraz uchun takrorlanmas, original tasvir topish kabi ijodiy fazilatlarni R. Vildanovning “Zaharli hayot”, “Begona” va “Elegiya” baletlari ustida olib borgan ishlarida ham yaqqol ko‘ramiz. Bernoraning o‘ynagan har bir roli alohida haqiqatdir. Bularda balenororaning ijodiy prinsiplariga taalluqli haqiqat jilolanib turadi.

O‘zbek baletining faxri Bernora Qoriyeva bugungi kunda O‘zbekiston davlat xoriografiya akademiyasida talaba yoshlarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga hozirgi zamon balet san’atining o‘tkir bilimdonlarini, mohir ijrochilarini, jonkuyar targ‘ibotchilarini yetishtirishda o‘z xissasini qo‘shib kelmoqda.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Sagatov, M.Muxamedova Ozbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari, T 2019.
2. M.Tursunxodjayeva Bernara luchezarnaya. Opa-singil suhbati, yoxud ayol nazdida,T 1990.
3. L.Avdeyeva Balet Uzbekistana.Adabiyot va san’at nashriyoti.T 1973

<sup>3</sup> L.Avdeyeva Balet Uzbekistana. Adabiyot va san’at nashriyoti. T 1973

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ХОРЕОГРАФИЯ  
МАШГ‘УЛОТИНИНГ О’РНИ**

*O’zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasi  
Urganch filiali “O’zbek raqsini o’rganish uslubiyati”  
fani o’qituvchisi Pirmagambetova Mariya Turganbayeva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida xopeografiya mashg’ulotining bolalar sog’ligi va tarbiyasiga ta’siri, har tamonlama sog’lom avlodning rivojlanishi uchun xoreografiya mashqlarining ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim muassasasi, yosh bolalar, ta’lim-tarbiya, yosh avlod, Xoreografiya, mashg’ulatlar turlari.

**РОЛЬ ХОРЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ  
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

*Узбекская государственная академия хореографии  
Ургенчский филиал “методика изучения узбекского танца”  
Учитель науки Пирмагамбетова Мария Турганбаева*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о влиянии хореографических занятий в дошкольных учреждениях на здоровье и воспитание детей, о значении хореографических упражнений для развития всесторонне здорового поколения.

**Ключевые слова:** дошкольное учреждение, дети младшего возраста, воспитание, подрастающее поколение, хореография, виды деятельности.

**THE ROLE OF CHOREOGRAPHY TRAINING IN PRESCHOOL  
EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*Uzbek State Academy of choreography  
Urgench branch " methodology for learning Uzbek dance"  
science teacher Pirmagambetova Maria Turganbayeva*

**Annotation:** this article will provide information on the impact of hopeography training in preschool institutions on the health and education of children, the importance of choreographic exercises for the development of each individual healthy generation.

**Keywords:** preschool educational institution, young children, education, younger generation, choreography, types of exercises.

Farzand yaratganning bizga bergan ulug‘ bir ne’matidir. Har bir ota-onal farzandlarga chiroyli tarbiya berishni, sog’lom qilib voyaga yetkazishni, ota - onasiga,

yaqinlariga mehrli, jamiyat, el-yurt rivojiga xizmat qiladigan shaxs qilib tarbiyalashni niyat qiladilar.

O‘zbek xalqida hamisha azal-azaldan farzand tarbiyasiga katta e’tibor bilan qarab kelgingan. Ma’rifatparvar olimlarimizdan Abdulla Avloniy aytganidek “*Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasi*” bo‘lib kelgan. Qolavesa, farzandni Ota-onaga, do’stlariga, Ona-vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalash xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Mana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari qilib tarbiyalash masalasi har doim diqqat-e’tiborimizda bo‘ladi. Zero, ertangi kelajagimizning qanday bo‘lishi biz tarbiyalayotgan yoshlarimizning odob-axloqiga, bilim saviyasiga bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa va raqsni yaxshi qabul qiladigan yoshdagi bolalar hisoblanadi. Xoreografiya mashg’ulati - bu yoshdagi bolalarning sevimli mashg’ulotlaridan biridir. Kichkintoylar tinib-tinchimaydigan bo‘lib ular tinmay harakatda bo‘ladilar va ko‘p savollar beradilar. Shuning uchun, odatda quvnoq musiqa sadosi ostida o‘tkaziladigan Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi xoreografiya darsi bolalar uchun sevimli mashg’ulotlaridan biridir. Raqs bolalarning jismoniy faoliyatga yaxshi ta’sir qiladi. Ularning har tomonloma sog‘lom bo‘lib rivojlanishiga yordam beradi. Raqs darslarida bolalar, ritmik harakat qilishni va harakatlarni bajarishni, ijodiy fikrlashni, harakatlarini tahlil qilishni, harakatlar ketma-ketligini yod olishni, raqs orqali hayol qilishni va his-tuyg‘ularini ifodalashni hamda diqqat bilan idrok etishni o‘rganadilar. Raqs ijro etish jarayoniда bolalarda ritm va temp hissi rivojlanadi, bola jismonan kuchliroq va chidamlı bo‘ladi. Raqs bilan shug‘ullangan bolalar orasida jismonan nosog‘lom bolalar deyarli bo‘lmaydi. Raqs – bu insonning ijodiy va jismoniy faoliyatidir, shuning uchun bolaning tafakkuri va tasavvuri ham rivojlanadi, jismoniy faolligini oshiradi va bola tengdoshlariga qaraganda sog‘lom o‘sadi, birlamchi badiiy didni rivojlantiradi, chiroyli holatlar shakllanadi. Bolalarda betakror va aniq imo-ishoralar, tana harakatlari rivojlanadi. Uyalchang bolalar o‘zlaridagi ishonchsizlikni, uyalchanglikni yo‘qotadilar.

Bolalar uchun xoreografiya bolaning sog‘lig‘iga qanday ta’sir qiladi? Eng ijobiy tarzda! Bolalar uchun xoreografiya darslari yaxshi! Ko‘pgina ota-onalar farzandlarini bizga ortoped yo‘nalishi bo‘yicha olib kelishadi. Bolasining umurtqa pag‘onasi qiyshayganligini yoki ayog‘ida muammo borligini aytadi. Biz bola bilan shug‘illanish jarayonida boladagi o‘zgarishni sezamiz. Bolaning kayfiyati ko‘tariladi, o‘z ustida ishlay boshlaydi, o‘ziga ishonchi ortadi. Qizlarimizdan biri ko‘zoynak taqib yurardi. Mashg‘ulot paytida ham ko‘zoynakni taqib yechmasdi. Faqat tadbirdorda yoki konsertlarda ko‘zoynakini yechib qo‘yardi. Ammo oftalmolog bilan keyingi uchrashuvda uning ko‘zoynagini bekor qilgan. Shifokor juda hayron bo‘lib so‘radi:

“Balki siz raqsga borasizmi?” Shifokor o‘zining tibbiy tushuntirishlarini berdi, bu turli mushak guruhlarining qon aylanishini va tananing umumiy holatini yaxshilagan.

Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarining vazifasi raqs mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish va bolalarni turli yo‘llar bilan qiziqtirib mashg‘ulatlarga jalb qilishdan iboratdir. Xoreograf o‘qituvchi “oddiydan murakkabgacha” tamoyiliga asoslanib, bir nechta harakatlar to‘plamini, turli mashqlarni yaratishi kerak. Kompleks turli mushak a’zolarini, diqqatni, nafas olishni, harakatchanlikni, ritmik harakatlarni rivojlantiradigan harakatlar va mashqlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Har bir mashq majmuasi bolalarning yosh toifasiga, ularning jismoniy imkoniyatlariga mos kelishi, har oyda mashqlarni tanlashni o‘zgartirishi, harakatlarni takrorlash, mashqni 8 martadan ko‘p bo‘lmagan holda bajarilishi lozim. Harakatni jonli va qiziqarli ko‘rsatishga, hayvonlar, qushlar, narsalar bilan bog‘liq raqslarni o‘rgatishga, qolaversa xoreografning o‘zi ham barcha harakatlar va mashqlarni bolalar bilan birga to‘liq bajarib bolalarga tushuntirishi kerak. Xoreografiya darslarini o‘yin muhitida o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu harakatni o‘rganish uchun bugunni maqsad qilib qo‘ymaslik, balki uni muntazam ravishda, hech bir bolani qiynamasdan o‘rgatish kerak. Mashg‘ulotlarni yaxshi sur’at va ritmda o‘tkazilishida yaxshi kayfiyat ham muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning o‘zini namoyon qilishi, istedodini ko‘satib berishi uchun sharoit yaratish bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantiradi. Jonsiz narsalar bilan raqsga tushishda - kublar, to’plar, lentalar, qo‘g‘irchoqlar, stullar va boshqa narsalardan foydalanish mumkin.

Raqsni sahnalashtirishda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan asosiy narsa - qo’llardagi narsalarning turli xilligi, ulardan foydalanish va narsalarning xilma-xilligi bo‘ladi. Musiqadan foydalanganda xalq musiqasi, multfilm qo’shiqlari, klassik musiqa, bolalar qo’shiqlaridan foydalanishingiz mumkin. Xoreografiya darslari nafaqat ijodiy jarayonni , balki keyingi hayotda zarur bo‘lgan ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Balalar o’zlarini va boshqalarni yaxshiroq tushuna boshlaydilar, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri quradilar, jamoada ishlaydilar, hal qiluvchi daqiqada qaror qabul qilishdan qo‘rqmaydilar. Har qanday hayotiy vaziyatlarga moslashishni o‘rganadilar. Shuning uchun davlatimizda xoreografiya sa’natining rivojiga katta e’tibor bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 4- fevraldag‘i “Raqs san’ati sohasida yoqari malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilinib, bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida xoreografiya mutaxassisligi bo‘yicha ish o‘rinlari yaratildi. Musiqa maktablarida xoreografiya bo’limlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ular uchun shart-shariyitlar yaratildi. Bu muassasalarga malakali kadrlarni tayyorlash uchun 2020 yil 5- fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida

Madaniyat vazirligi tasarrufida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. 2021-yilda esa O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali tashkil etilib malakali xoreografiya mutaxassis kadrlarini taylorlashda o'z xissasini qo'shamoqda.

Biz xoreografiya o'qituvchilarini davlatimiz tomanidan berilayotgan katta e'tibor xursand qildi. O'ylaymanki, shu sohada ishlayotgan har bir xodim kelajakimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni har tamonloma yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda bilim va tajribalarini ayamaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risidagi qonun – T.: 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
3. F.Xo'jaev, K.D Raximqulov, B.B.Nigmanov «Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma "Cho'lpon" nashriyoti Toshkent 2011 y.
4. K.D.Raximqulov «Milliy harakatli o'yinlar» o'quv qo'llanma "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti Toshkent 2012 y.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK TOPOONYMIC PHRASEOLOGICAL UNITS

*Xushmuradova Xolida To'lqin qizi (master degree student)  
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

**Annotation:** This article is devoted to the study of English and Uzbek phraseological units, including place names. Attempts are being made to identify the sources of origin, as well as to analyze them from a linguocultural perspective. Toponymic phraseological units in both languages are divided into five main groups according to their sources of origin, and special attention is paid to historically connected phraseological units. Phraseological units based on specific historical events and facts are opened and explained here. The author suggests two major groups for the presence of real placenames in phraseological units. The toponymic properties of real toponyms in the sense of the corresponding noun and phraseological unit have also been identified. There are also additional connotations of toponyms that affect the meaning of phraseological units. Examples are taken from a number of phraseological and paremiological dictionaries in English and Uzbek.

**Keywords:** Toponym, onomastics, phraseological unit, Uzbek, English

### INTRODUCTION

Toponymy is an integral part of onomastics, which studies geographical names (toponyms), their meaning, structure, origin and distribution. The set of toponyms in any territory constitutes its toponomy (Nikonov, 2011)<sup>1</sup>. Traditionally, a toponym means the proper name of any geographical object, any object on the surface of the Earth or in its depths, identified by a person as an independent unit (Superanskaya, 1984), Davletkulova (2014) defines toponyms as ‘historically, socially and culturally defined geographical names of any natural or artificial objects created by man on land or on the water territory of the Earth. Geographical names are very stable, they persist for a long time, becoming a kind of historical monuments; therefore, toponymy, according to many researchers, also to a certain extent refers to history and source study (Nikonov, 2011; Garaeva, 2014). The status of a toponym is determined by its main functions in the linguistic culture of an ethnos: a) nominative (naming); b) individualizing (identification); c) cumulative; d) cultural content (Sedykh et al., 2020). Nikonov (2011) in his work "Introduction to Toponyms" identifies three semantic planes of toponyms: pre-toponymic, toponymic proper, and post-toponymic. (it has nothing to do with the first, since it lies in a different plane) 3) the ottoponymic

<sup>1</sup> Nikonov, V.A., (2011) Introduction to Toponymy. Pub.2nded. –M.: Publishing LKI.

(posttoponymic) meaning is the associations that connect people with a name as a result of acquaintance with an object. It is vitally important to know the post-toponymic meaning, since the meanings of PUs with a toponymic element are based on it.

## **MATERIALS AND METHODS**

Maslova (2005) emphasizes the role of background knowledge in the use of phraseological units with the constituent parts of a proper name, stating that the denotative aspect plays an important role in the meaning of phraseological units containing proper names. These phraseological units reflect the history of people; therefore, to understand them, you need to know specific historical facts. In all languages of the world, many phraseological units are based on the names of cities, streets, rivers, oceans, as well as on the realities associated with toponyms. PU with a toponymic component reflect a person's centuries-old observations of the world of toponymy, convey the attitude of people to this sphere of reality<sup>2</sup>.

## **RESULTS AND DISCUSSION**

There are many place names formed as part of the PU. It is important to examine how and when they appeared, as well as the determinants of their appearance. In some cases, these PUs undergo semantic transformations over time. Consequently, in the study of such phraseological units, the motivation and etymology of toponymic components play a vital role. In the process of researching the sources of origin, the following groups of software were discovered:

Shipshape and Bristol fashion - for everything to be in order (in the middle of the 19th century, Bristol was known as a port city in England. The expression emphasized the commercial prosperity of the port of Bristol and its good navigation conditions) (Shitova, 2012; Rezanova, Khlebnikova, 2015) cross the Rubicon - take irreversible action (The Rubicon was a small river in northeastern Italy. By moving his army across the Rubicon to Italy in 49 BC, Julius Caesar violated the law forbidding a general to withdraw an army from his own province, and therefore entered the war against the Senate and Pompey (Judith, 2004). In Uzbek: gap quvgan baloga yo'liqar, yo'l quvgan G'aznaga - the expression refers to the fact that Ghazna was one of the cultural, political and commercial centers of Central Asia in the Middle. In most cases, the meaning of such units is closely related to the origin of PU).

PUs have combined customs, traditions and everyday life. Be Complete / Talk Blarney - make incomprehensible promises, flatter and deceive. The Blarney stone is a stone of the same name in Ireland. By tradition, kissing this stone, a person acquires the ability to charm and convince people (Shitova, 2012). In the Uzbek language there is PU with toponymic components related to customs and everyday life: Beva xotinga Buxorodan it huradi- so that the widow should live alone, as they gossip about her;

---

<sup>2</sup> Rezanova, Z. I., & Khlebnikova, A. L. (2015). Gender metaphors in Russian and English linguocultures: a comparative study.

Eshonbozorda it olsa "yigirma" sidan quruq qolmaidi - a person who goes everywhere, especially for ceremonies (Eshonbozor is a village in the south of Kazakhstan, yigirma is a religious ceremony that is held after death)<sup>3</sup>; ahmoqqa Quva bir tosh - used when a person who does not do something completely and must do it again; PUs that came from other languages: idioms and borrowings It is almost impossible to find exact synonyms for such units in other languages, thus the toponymic Pus are borrowed in most cases: in English, discover America also exists in Uzbek, Amerika ochmoq - to say or declare what has already been discovered; There are phraseological onions that exist in both languages, but in some cases they differ in meaning, for example, the Chinese wall means a barrier in English, since there has never been a unique plan for its construction, and in the Uzbek Xitoy devorimeans there is something stable and durable ... The two languages took into account different features of the same phenomenon. It should be emphasized that they are associated with world famous historical events and phenomena.

## **CONCLUSION**

PUs containing place names in their structure have social, geographic and historical associations that are part of the background and communicative knowledge of native speakers. Facts and events of the distant past, religion, literature, customs and traditions of the nation stimulated the formation of ITS with an element of toponym. They contain culturally significant and historically related information, as a wide range of extralinguistic factors contributed to their origin. Thus, the national-cultural component of the toponym plays an important role in the semantics of such units. 2) Although most of the analyzed PU groups have similar characteristics, functions and come from the same sources in both languages, it is almost impossible to find exact parallels, except for international PU (biblical, mythological) in other languages, as they relate to unique - cultural concepts and realities every nation.

## **REFERENCES**

1. Nikonov, V.A., (2011) Introduction to Toponymy. Pub. 2nded. –M.: Publishing LKI.
2. Rezanova, Z. I., & Khlebnikova, A. L. (2015). Gender metaphors in Russian and English linguocultures: a comparative study.
3. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 215, 273278. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.11.634>
4. Sedykh, A., Marabini, A., Stryzhnova, M., Bolgova, E., & Bolgova, N. (2020). Toponymic phraseological unit, linguistic thinking and discourse: Russia, France and Italy. Revista Inclusiones, 488-500.
5. Shitova, L.F. (20120) Carry Coals to Newcastle. 350 Geographic idioms and more. SPb. Anthropology.
6. Shoikova, A. M., & Tikhonova, E. V. (2014). The development of students' mental lexicon in legal discourse by means of authentic materials. Procedia-Social And Behavioral Sciences, 154, 522- 526.

---

<sup>3</sup> Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh., (2017) Why do we say so. Dictionary of Uzbek national proverbs. Tashkent.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ONA TILI VA O‘QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA  
TASHKILLASH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Saymurotova Shaxnoza Turg‘unovna  
Toshkent viloyati Angren shahar 17-maktabning  
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘qish daslarida interfaol metodlardan foydalanish, darslarni zamonaviy usulda tashkillash borasida bahs-munozarali fikr-mulahazalar aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** metod, “Tushunchalar tahlili”, “Ustunchalar”, “Bo‘laklarni tiklash”, “To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Ha yoki yo‘q”, “FSMU”

Ilm – inson uchun Olloh tomonidan berilgan eng oliy ne’mat. Barcha jonzodlardan inson aql-zakovati bilan ajralib turadi. **“Yoshlikda olingan bilim — toshga o‘yilgan naqsh kabidir”**, - deya Imom al-Buxoriy bejizga ta’kidlamagan bo’lsa kerak. Chindan ham, inson hayotining aynan yoshlik davrida o‘rganilgan har qanday bilim, ko‘nikmalar, u ulg‘aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlik – kishi umrining bahor davri, unda hayotning bo‘lg‘usi yillari uchun urug‘ ekiladi. Ilm esa insonning hayot yo‘lida yo‘lchi yulduz singari mayoq vazifasini o‘taydi. Kelajak avlodga ta’lim berishda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga juda mas’uliyat yuklanadi. Bolalarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Bugungi kun talabi asosida darslarni zamonaviy usulda, yangi metodlar asosida o‘tish o‘qituvchini ijodkor bo‘lishga mavzuni tez va oson o‘quvchilar ongiga yetib borishiga sababchi bo‘ladi. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin. O‘quvchilarni o‘qish darsiga qiziqtirish uchun interfaol metodlarning tashkil etilishi,


yangi mavzuni mustahkamlash, o‘tilgan mavzularni takrorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: “Tushunchalar tahlili” metodidan “Halollik” nomli o‘zbek xalq ertagini mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma’lumotlarni aytib ketadi, O‘quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o‘quvchilar uning tahlilini yozishadi.

No	Tushuncha	Tahlil
1.	Halollik	Vijdon bilan,insof yuzasidan ish tutish; to‘g’rilik, soflik
2.	Omoch	Yer haydaydigan asbob
3.	Jinoyatchi	Ayb, gunoh ish qilgan shaxs

Yana bir metod bu – “Ustunchalar” metodi. Bu metodni sinfni uch guruhgaga ajratganimizda qo‘llasak, hamma o‘quvchining fikrlashiga ega bo‘lamiz. Mavzu: “Ot so‘z turkumining ma‘no turlari” Ma‘no turlari ustunchalarga yozilib, plakat holida o‘quvchilarga taqdim etiladi. O‘quvchilar ertak qahramonlarini belgilangan vaqt mobaynida ustunchalarga yozishadi, va izohlashadi:

“Halollik” ertagi	“Qush ini” rvoyati	“Ahillik – ulug‘ baxt” ertagi	“Donishmand yigit” ertagi
Dehqon Dehqonning oshnasi Donishmand	Qush Bolalar	Donishmand chol Yetti o‘g‘il	Donishmand chol To‘ng‘ich o‘g‘il O‘rtancha o‘g‘il Kenja o‘g‘il

“To‘g‘ri-noto‘g‘ri” metodi. O‘quvchilarga yangi yoki o‘tilgan mavzular yuzasidan savollar beriladi. Ularning qo‘llariga to‘g‘ri va noto‘g‘ri kartochkalari bo‘ladi. Savol yoki ma’lumotlar o‘quvchilarga aytildi, to‘g‘ri bo‘lsa, to‘g‘ri kartochkasini, noto‘g‘ri bo‘lsa, noto‘g‘ri kartochkasini ko‘tarishadi.



“Bo‘laklarni tiklash” metodi. Bu metodda o‘qish darslarida she’r, topishmoq, maqollarni eslab qolish malakasini tekshirish uchun foydalaniladi. She’r, topishmoq, maqol matni bo‘laklarga bo‘linib, o‘quvchilarga aralash holda beriladi. O‘quvchilar bo‘laklarni tiklab, sinf doskasiga qo‘yilgan ko‘rgazma taxtasiga yopishtirishadi.

“Tushunchalar tahlili”, “Ustunchalar”, “Bo‘laklarni tiklash”, “To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Ha yoki yo‘q”, “FSMU” va boshqalar. Bu metodlarni har bir darslarda foydalanib borish orqali o‘tilgan va yangi mavzularni mustahkamlash mumkin.

Bundan tashqari o‘qish darslarida berilgan hikoya, ertak va rivoyatlarni rollarga bo‘lgan holda o’quvchilar bilan birgalikda sahnalashtirilsa, o’quvchilar yodida tez va oson saqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda zamonaviy darslar va interfaol metodlarning ijobiy tomonlari juda ko‘p. Uni qo‘llash orqali mavzularni, o‘zbek va bolalar adabiyotini mukammal o‘rganish mumkin. O‘qish fani betakror, uning har bir qirralari kash qilinmagan ummonga teng. Adabiyotimizni qadrlab, uning har bir qirralarini fanda kashf qilishimiz lozim. “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” ekanligini doimo esda saqlagan holda yurtimizga munosib farzandlarga ta’lim-tarbiya beraylik. O‘zbekiston kelajagiga yetuk va namunali shaxslar yetishib chiqishi uchun munosib hissa qo‘saylik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017 2.
2. M.Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. O‘qish kitobi. Toshkent: “O‘qiyuvchi” -2019-yil
3. Yo’ldosheva D. Ashurbayeva R. Ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.- T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
5. Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?>. “Ta’lim texnologiyalari”

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA BUGUNGI KUN TALABIGA  
KO‘RA DARSLARNI ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA TASHKILLSH  
YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Djalolova Nozimaxon Muhammadaliyevna*

*Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 22-sonli o‘rta ta’lim maktabi  
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinf darslarida interfaol o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati hamda ularning qo‘llash va foydalanish o‘quvchini ushbu o‘yin orqali og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** O‘z-o‘zini baholash va tafakkur o‘yinlari, ta‘limiy o‘yinlar, interfaol o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, badiiy o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, interfaol metodlar, pedagogika tehnologiya ta‘limiy o‘yinlar.

Boshlang‘ich ta‘limda ta‘limiy, didaktik hamda ertak usulida darslarni tashkil etish o‘quvchilarni aqliy faoliyatiga tezroq kirishishlari adabtatsiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi. O‘tilgan darsni mustahkamlashda yoki yangi darsni boshlanishida ta‘limiy interfaol o‘yinlardan foydalanib o‘quvchilarni qiziqishlarini darsga yanada oshirish mumkin. Ta‘limiy interfaol o‘yinlarning ahamiyati boshlang‘ich ta‘limda qo‘llash yaxshi samara beradi. Ta‘limiy o‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘lum sifatlarni shakllantirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan usuldir. O‘yin vositasi bilan o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish jarayoni mustahkamlanadi, shuningdek bolalarda muomala madaniyati shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim jarayoniga qiziqishini yanada oshiradi. Mazkur didaktik metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi. Talim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, talim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich talim umumtalim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq etibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining masuliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘yan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari,

aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang\_ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi masuliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

### “So‘zlar tahlili” ta‘limiy o‘yin

Nº	Yangi so‘z hosil qiling		Bo’gin	Tovush	Unli tovush
1.	Ish	-chi	2	5	2
2.		-la	2	5	2
3.		-lab	2	6	2

“So‘zlar tahlili ta‘limiy o‘yini” o‘quvchilarni nutqi, fikrlash doirasi, muomala madaniyatini shakllanishida yaxshi samara beradi. Bu o‘yindan o‘qish, ona tili, odobnama mehnat, tabiat, darslarida ham keng foydalanish mumkin. O‘yin qoidasi: Gul so‘ziga qo‘srimcha qo‘sish orqali yangi so‘zni hosil qiladilar, so‘ng hosil bo‘lgan yangi so‘zni bo‘g‘in va tovush tomonidan tahlil qilib kerakli jadvalga yozib chiqadilar.

“Bo‘g‘in o‘yini” metodi - O‘quvchilarning tez fikrlashini oshirish, so‘z boyigini boyitish maqsadida o‘tkaziladi. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keyingi so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Masalan: maktab – tabrik, rassom – somsa, ota – ta‘zim, vatan – tanla.

“Kun va tun” metodi – o‘qituvchi uka so‘zini alohida yozib, bolalarga: “So‘zni ko‘rib olib, ko‘zinizni yuming”, - deydi va u harfini a harfi bilan almashtirib: endi ko‘zingizni oching, so‘zdagi o‘zgarishni topishini aytadi. O‘quvchilar u harfini almashishi natijasida, aka so‘zi paydo bo‘lganligini aytishadi. Bu o‘yin bir necha marta takrorlangach, so‘zlar murakkablashtirilishi mumkin.

“G‘alati bog” metodi – Biror narsani eslayotganimizda nima sodir bo‘ladi? Javob to‘liq tushunilmagan. Biroq, miya ko‘rish texnologiyasi ma'lumotlarning turli turlarini yodga olganda, miyaning turli qismlari neyronlari faollashtirilganligini aniqlash imkonini beradi. Bizda bir xotira yo‘q. Va bir nechta tizimlar mavjud va ularning har biri o‘z roliga ega, biroq xotira rivojlantirishning usullari va metodlari yaxshilanishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilarga qisqa vaqtida rasmlar ko‘rsatiladi.

“Yashirin so‘zlarni toping” metodi. Harflardan "yashirin" so‘zlarni topish taklif etiladi: sunshin mashinasi prstyurozaevncidzharamylrkvtsumkaldchevrybay

(quyosh, stol, deraza, mashina, atirgul, issiqlik, sumka, baliq.)

“Shoshiling, adashmang” metodi. (O‘yin uchun turli xil narsalar kerak. O‘yin diqqatni almashtirishga qaratilgan). Ekran ortida uy egasi turli xil narsalarga ega: qizil tasma, oq bayroq, yashil doira, sariq kvadrat, o‘yinchoq it. Taqdimotchi turli xil narsalarni navbat bilan ko‘rsatadi. Bolalar ushbu ob‘ektini muayyan (ushbu ob‘ektga tayinlangan) harakat bilan tasvirlashlari kerak: qizil lenta - uni silkitib qo‘ying; oq bayroq - turmoq; yashil doira - atrofingizdagi doira; sariq kvadrat - o‘tirish; o‘yinchoq - it - dumini silkit.

"**Kim eng ehtiyotkor**" metodi. O'qituvchi o'quvchilarga ertak o'qib beradi va unda "L" yoki "T" tovushlari bilan ishtirok etgan so'zlar sonini hisoblashni so'raydi. Bu esa o'quvchilardan tinglashdan tashqari, matematik tezlikni ham talab qiladi.

"Baliq skeleti" texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama o'chib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepe qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida "Yo'l qoidalari mavzusida" Svetofor nima uchun kerak?" muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o\_rganadilar.

"Venn diagrammasi. Ushbu texnologiya ona tili, o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishslash, o'rganilgan materialni yodida saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro"yxati

1. Muxina V.S Bolalar psixologiyasi. - M.: OOO Aprel Press YoAJ nashriyoti EKSMO Press, 2000
2. Tojiev M va boshqalar. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. T.: 2008.
3. Internet saytlari, www.ziyonet.uz, www.google.uz, www.pedagog.uz, ww.biology.com

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O`QITISHDA  
O`YIN TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH BO`YICHA  
METODIK TAVSIYA**

*Aminjonova Gulnoza Abduhakim qizi  
Farg`ona viloyati Farg`ona tumani 3- o`rta ta'lim maktabi  
Informatika va AT o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur metodik tavsiyada o`quvchilarning mustaqil bilim olish, o`rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o`rni va ahamiyatini oshirish, mashg`ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o`tkazish, o`quvchilarning faolligini oshirish, o`zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan metod va shakllarni qo`llash, ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

**Kalit so`zlar:** Interfaol metodlar, o`yin texnologiyalarning ahamiyati, o`yin texlagiyalar haqida

“Informatika” fanini o`qitish samaradorligini oshirish o`quv mashg`ulotlarini tashkil etish hamda o`tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, o`qitish mazmuniga mos dasturiy ta`minotini ishlab chiqish, ularni o`quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni dolzarbligini e`tiborga olgan holda “Informatika” fanini o`qitishda o`yinli texnologiyalardan foydalanish holatini o`rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

O`yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O`yin olimlar tadqiqotlariga ko`ra mehnat va o`qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta`kidlashlaricha, o`yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o`zini namoyon qilish, hayotda o`z o`rnini barqaror qilish, o`zini o`zi boshqarish, o`z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.O`yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O`yinlar turli maqsadlarga yo`naltirilgan bo`ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo`llanadi. O`yining didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko`nikmalarni qo`llash, umumta`lim malaka va ko`nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko`nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo`ladi. O`yining tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar,

ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo’ladi.

“Kim chaqqon ” – musobaqa metodi.

1. O`qituvchi nazariy darslardan so`ng o`quvchilarga amaliy mashg`ulotdan biror misolning bajarilish namunasi ni ko`rsatadi.

2. O`quvchilarga bir turdagи yoki o`xhash misollar yozilgan kartochka – vazifalar tarqatiladi

3. O`quvchilar amaliy mashg`ulotni bajaradi va birinchi bajargan o`quvchilarga baholash tizimi yordamida stikerlar topshiriladi.

4. O`quvchilarga qo`shimcha ball sifatida boshqa misolbajarish imkonи beriladi.

“Step by step” metodi. bu metodni amaliy mashg`ulotlarda qo`llash mumkin.

1. O`qituvchi darsda beriladigan bir necha bosqichli masalalarning bajarish algoritmi bilan tanishtiriladi

2. O`quvchilar vazifalarni guruhda yoki individual ko`rinishda birin-ketin bajaradi

3. Barcha natijalarni o`quvchi daftarga yozib boradi yoki kompyuterda fayl ko`rinishida saqlaydi

4. Dars oxirida javoblar tahlil qilinadi va baholanadi.

Breyn-ring. Bu o‘yin 2-guruhga kirib, unda har birida 5–6 nafardan o‘quvchi qatnashgan jamoalar soni 2 tadan 5 tagacha bo‘lishi mumkin. Boshlovchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri birinchi bo‘lib to‘g‘ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to‘g‘ri javob uchun olingan ball to‘planib boradi. Agar to‘plangan balni vaqtida o‘z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o‘yinni to‘xtatmay, o‘yin davomida noto‘g‘ri javob berib qo‘ysa, o‘sha ishtirokchi to‘playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, qatnashuvchi o‘zi istagan paytda o‘yinni to‘xtatishi va to‘plagan balini jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa ishtirokchilar javob berishi lozim va ular ham o‘z jamoalari hisobiga ball to‘plash imkoniga ega bo‘ladilar. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball

Domino o‘yini. O‘yin 5-guruhga tegishli bo‘lib, unda ikki kishi ishtirok etadi. O‘yinchilarga quyida tayyorlangan kartochkalar aralashtirilib, tarqatib beriladi. Har bir kartochka uchun berilgan savollarga mos javob noto‘g‘ri tashlanguncha o‘yin davom etadi. Noto‘g‘ri javob bergen o‘quvchi mag‘lub hisoblanadi. Agar o‘yining oxirigacha barcha javoblar to‘g‘ri tashlansa, qo‘lida kartochka qolib ketgan talabani mag‘lub deyish mumkin.

Zanjir o‘yini. Guruh 4ga bo‘linib, har bir guruhdan 1 o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o‘quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi aytganini va o‘zinikini qo‘sib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o‘quvchi

aytgan atamalarga yana o‘zi yangisini qo‘sib aytadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi, eng oxiri o‘yindan chiqib ketmay qolgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. O‘yin xotirani mustahkamlashga juda qo‘l keladi.

Do‘srlar davrasida. O‘yin 3-guruhga tegishli bo‘lib, talabalarning bir necha nafari kompyuterning turli xil qurilmalari yoki operatsion tizimning turli xil buyruqlari vazifasini bajaradilar. Ular o‘zlarining do‘srlari ishtirok etgan davrani topib olishlari kerak. Buning uchun kompyuterning tashqi va asosiy qurilmalari yoki ichki va tashqi buyruqlar bir-birini topib olishi kerak. Do‘srlar qo‘l ushslashib davra quradilar va o‘zlarini tavsiflab beradilar. Bu o‘yin bilimlarni mustahkamlaydi va talabalarda bir-birlariga bo‘lgan yordam hissini shakllantiradi.

Kim chaqqon? Guruh ikkiga bo‘linib, har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. Bir o‘quvchi fanga tegishli atamani o‘zining maydoniga yozadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi yozmagan qo‘sishimcha atamani ishlatadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Kimning maydonida eng ko‘p to‘g‘ri, mantiqiy bog‘langan tushunchalar paydo bo‘lsa, shu jamoa g‘olib sanaladi. O‘yin xotirani mustahkamlashda va takrorlashda qo‘llaniladi.

Men kimman? Bu kompyuterning qurilmalarini tavsiflashda eng yaxshi usuldir. Bir o‘quvchi o‘zining «Kimligini topolmayapti?» Unga boshqa o‘quvchilar yordamga keladi. «Men qanday qurilmaman?», «Men qayerda ishlatilaman?», «Eng yaxshi qobiliyatim qachon namoyon bo‘ladi?», «Qaysi qurilmalar men bilan hamohang ishlaydi?» va hokazo. Qanchalik ko‘p savol berilib, sharhlar so‘ralsa, shunchalik o‘quvchi bali kamayadi. Kim topqirroq bo‘lsa, tezroq jumboqni yechishi kerak bo‘ladi. Nafaqat qurilmalarda keyinchalik dasturiy ta’minotlar, menuy bo‘limlarining vazifalarini tavsiflashda ham o‘yindan muvaffaqiyatl foydalanish mumkin. O‘yin o‘quvchida obyektlarning xususiyatlarini anglashda, xotirani rivojlantirishda, bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturchi va buyurtmachi. Dasturlash bo‘yicha o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarida «Dasturchi va buyurtmachi» roli o‘yinini qo‘llashni tavsija qilamiz. Unda buyurtmachi dasturchilar kompaniyasiga kelib, buyurtma qilinadigan dasturga bo‘lgan talablarni tavsiflaydi. «Menga muzqaymoqni reklama qiluvchi stend kerak», «Menga zamonaviy uyning loyihasi kerak». Mazkur topshiriq bo‘yicha kompaniya, ya’ni guruh a’zolari jamoalarga bo‘linib, vazifalarni taqsimlab oladilar. Uni talab darajasida bajaradilar. Ekspertlar guruhi topshiriqni bajarilish sifatini va kompaniya ishini baholashlari mumkin. O‘yin 4-guruhga mansub bo‘lib, o‘quvchida ijodiy fikrlash va o‘z qobiliyatlarini amaliy ishda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa qilib ayatadigan bo`lsam, mening fikrimcha ta’limda ko’plab innovatsion usullar samarali bo‘lib, ayniqsa ta’limda aniq maqsad qo‘yish yoki fanlararo bog’lash, aniq maqsadga erishish ko‘p foydali xisoblanadi. «Maqsadli yondashuv» uslubi

ta’limda o’quvchi, talabalarni ijodiy fikrlashga, fanning mazmun mohiyati va maqsadini o’rgatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O’zbekiston, 1999. - 48 b
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Informatika>
3. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
4. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent-2013-yil.
5. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
6. Yuldashev U.Y., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent, “Talqin”, 2005 y.
7. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.
8. Saidaxmedov N.S. Yangm pedagogik texnologiyalar T., “Moliya”, 2003y., 172 b.
9. To’raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., “Fan”, 2006 y., 240 b.
10. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o’qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan ma’ruza matnlari. Guliston, GulDU, 2013 y.

**XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMLARINI  
SHAKILLANTIRISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

*Djalolova Nargiza Dilmurodovna  
Farg'onan viloyati Farg'onan tumani  
22-sonli o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakillantirishning nazariy asoslari va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarni kitoxonlikga qiziqtirish haqida fikrmulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, kitobxonlik, tarbiya, kutubxona, ertak, hikoya, barkamol avlod.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g'oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan. Ta'lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta'lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo'lgan. Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. Yozish-o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan.

Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lамини kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini

ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqeа va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Buning uchun har bir fanning mazxmuniga kirgan mavzular mutaxssis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to'plangan ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig'indisi xalq pedagogkasining mazmunini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va donishmandlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'limtarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga, mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishiga katta hissa qo'shamdi. Shu tufayli ham boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi.

Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali o'z xalqining o'timishini, mehnat faoliyatini, orzu havas va intilishlarini bilib oladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qo'llangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergen tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga yetkaziladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi qisqa, aniq ma'no anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha bo'lgan har xil turdag'i namunalarni o'z ichiga oladi. Bularning hammasida inson kamoloti, aql-idroki, kuchqudrati, axloq-odobi, mehnat faoliyati va mahorati talqin qilinadi. Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, ta'limning har bir bosqichida o'rganilishi mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda o'rgatish o'qitishning samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta'lim va tarbiyaning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir.

Mustaqil O'zbekistonning rivojlanish yo'li negizlari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi namunalari eng ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Respublikamiz olimlari tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalari va ularni yoshlarga o'qitish muammosi muntazam o'rganib kelingan. H.Zarifov, I.Afzalov, M.Alaviya, M.Murodov,

G'.Jahongirov, T.Mirzaev, M.Obidova, Z.Husainovalarning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi namunalarining turli janrlari, paydo bo'lishi va taraqqiyot masalalari nazariy jihatdan asoslangan.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo'shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko'proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta'sirini inkor etish mumkin emas. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o'z ichiga olgan, kishilarning axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ'ib qilingan. Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo'naliшlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamololtiga ta'sir etishning vositasi bo'lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bu fikr keyingi boblarda batafsilroq tahlil etilishi sababli atroflicha to'xtalmadik.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi matabning, oila va jamoatchilikning ta'siri ostida amalga oshib boradi. Bola kamolotining bu yo'naliшhi uni keljakda qanday inson, mutaxassis, o'zi va jamiyat uchun zarur hamda foydali bo'lishini belgilab beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida "kichik", "arzimas", "mayda-chuyda", degan narsalar bo'lmashligi kerak. Ana shu arzimas narsalardan keyinchalik "ulkan" muammolar kelib chiqishini doim esda saqlash zarur. Matabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo'shish mumkin ekanligi aniqlandi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T: O'zbekiston ,2017;
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi Boshlang'ich ta'lim. Toshkent, 2005.
4. Boshlang'ich ta'lim konsepsiysi Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
5. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2010.

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	BOSHLANG'ICH SINF O`QUVCHILARINING YOZMA NUTQDAGI XATOLARI VA KAMCHILIKLARI TASNIFI VA ULARNING O`RGANILISHI	3
2	UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI BOLALAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HAMKORLIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	9
3	BOSHLANG'ICH SINF SINFDAN TASHQARI O`QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO`LLASH SHAKLLARI	13
4	BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O`TISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH	16
5	BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O`QITISH METODIKASI	20
6	ТАЛАБАЛАР ТУРАР ЖОЙИНИ БОШҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ОПТИМАЛ ПЛАТФОРМАСИНИ ЯРАТИШ	23
7	ПЕДАГОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА МАЪЛУМОТЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА СТАТИСТИК ҚАЙТА ИШЛАШ	27
8	STATISTICAL SERIES AND HISTOGRAM IN PROBABILITY THEORY	33
9	ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ	34
10	СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	38
11	LOGARIFM HAQIDA TUSHUNCHA. LOGARIFMIK FUNKSIYA. LOGARIFMIK TENGLAMA VA TENGSIZLIKLER MAVZUSINI MUSTAHKAMLASHGA DOIR MISOLLAR YECHISH YUZASIDAN MATEMATIKA O`QITUVCHILARI UCHUN METODIK TAVSIYALAR	42
12	TASVIRIY SAN`AT FANINING KELIB CHIQISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDA FANNING O`ZIGA XOS RIVOJLANISHI HAQIDA METODIK TAVSIYA	48
13	XORIJUY TILLARNI O`ORGANISH NEGA MUHIM?	52
14	XORIJUY TILNI O`ORGANISHDA SHE`RIY ASARLARNI TO`G`RI TALQIN ETISHNING AHAMIYATI	57
15	METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF EXPLOSIVE STRENGTH AND SPEED-STRENGTH TRAINING OF ARMWRESTLERS	62
16	«ЕНГИЛ АТЛЕТИКАДА УЗОҚ МАСОФАГА ЮГУРИШДА АЁЛЛАРНИНГ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ»	67
17	“IMPROVING APPROACHES TO WORK WITH SPECIAL PHYSICAL TRAINING OF WUSHU (TAOLU) ATHLETES 12-14 YEARS OLD DURING PRE-COMPETITIVE ACTIVITIES”	73
18	TECHNOLOGY IN LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	78

<b>19</b>	ADABIY TAHLIL YORDAMIDA O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLIGI VA NUTQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	<b>82</b>
<b>20</b>	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI	<b>85</b>
<b>21</b>	O'ZBEKİSTONDA TRANSPORT SOHASIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK ISLOHOTLARI	<b>90</b>
<b>22</b>	РОЛЬ ПСИХОЛОГОВ В ОРИЕНТИРОВАНИИ МОЛОДЕЖИ НА ПРОФЕССИЮ	<b>93</b>
<b>23</b>	GEOGRAFIYA FANI RIVOJLANISH TARIXI	<b>97</b>
<b>24</b>	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	<b>102</b>
<b>25</b>	O'SMIR YOSHDAGI SPORTCHILARDA PSIXOLOGIYA	<b>107</b>
<b>26</b>	O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ TAEKVONDO VA SPORT FAOLIYATI FAKULTETI TALABASI	<b>117</b>
<b>27</b>	TAEKVANDODA SPORT TURIDA TEXNIK HARAKATLARNING BIOMEXANIKAVIY QONUNIYATLARI	<b>123</b>
<b>28</b>	TAEKVONDO SPORTINI O'RGATISH USLUBIYATI	<b>127</b>
<b>29</b>	TAEKWANDO SPORT TURIDA TEXNIK HARAKATLARNING O'RGANILISHI	<b>131</b>
<b>30</b>	IX-XIII ACSRALARDA TERMIZ VA ҶАҒАНИЁННИНГ СИРЛАНГАН КУЛЛОЧИЛИГИ	<b>135</b>
<b>31</b>	TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI	<b>141</b>
<b>32</b>	MAKTABGACHA TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARNING TURLARI VA ULARNI OLIB BORISHGA DOIR TALABALAR	<b>148</b>
<b>33</b>	ХУДОЁРХОН ЎРДАСИ МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИГИ	<b>152</b>
<b>34</b>	BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV	<b>155</b>
<b>35</b>	"EFFECTIVE ENGLISH TEACHING FOR YOUNG LEARNERS CLASSROOMS"	<b>157</b>
<b>36</b>	TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SHAXSGA YO'NALТИRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	<b>161</b>
<b>37</b>	ZAMONAVIY RAQSLAR HAQIDA MULOHAZA	<b>167</b>
<b>38</b>	O'ZBEK BALETINING SHAKLLANISHIDA BERNORA QORIYEVA O'RNI	<b>170</b>
<b>39</b>	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA XOREOGRAFIYA MASHG'ULOTINING O'RNI	<b>174</b>
<b>40</b>	COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK TOPOONYMIC PHRASEOLOGICAL UNITS	<b>178</b>
<b>41</b>	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR	<b>181</b>
<b>42</b>	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIGA BUGUNGI KUN TALABIGA KO'RA DARSLARNI ZAMONAVIY TALABALAR ASOSIDA TASHKILLSH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR	<b>184</b>

<b>43</b>	INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O`QITISHDA O`YIN TEXNALOGIYALAR DAN FOYDALANISH BO`YICHA METODIK TAVSIYA	<b>187</b>
<b>44</b>	XALQ OG`ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA KITO BXONLIK KO`NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA	<b>191</b>



**JOURNAL OF  
NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

